

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Boshlang'ich ta'lim kafedrası

Qayd raqami _____

“Tasdiqlayman”

O`quv ishlari bo`yicha

prorektor D.Q Durdiyev

« ____ » _____ 2018 yil

“TABIATSHUNOSLIK VA UNI O`QITISH METODIKASI”

FANI BO`YICHA

O`QUV-USLUBIY MAJMUA

2-kurs (III- sem)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111700– Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish

BUXORO-2018

O`quv-uslubiy majmua O`zbekiston respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining 2017-yil 18 08 BD-5111700-3.080-24 08 buyrug`i bilan tasdiqlangan namunaviy o`quv dasturi asosida tuzildi.

O`.U.M ning mualliflari:

G`.M. Sayfullaev b.f.n. dotsent

Taqrizchilar: B.O.Komilova : Biologiya kafedrasida b.f.n. dotsent

L.X.Alimova Biologiya kafedrasida o`qituvchisi.

Kafedra yig`ilishi bayoni №1 “___” 08. 2018- y.

Kelishilgan

Fakultet kengashi raisi: dots. UMAROV B.J.

Fakultet yig`ilishi bayoni №1 “___”.08.2018- y.

OTMO`MK raisi _____ D.Q.Durdiyev

OTMO`MK yig`ilishi bayonnomasi № ___ “___” ___ 2018- y.

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası

1-son yig'ilishining

Bayonnomasi

Buxoro shahri.

2018 - yil ___ avgust

Qatnashdilar: Kafedra mudiri prof. Maxmudov M.X, dotsentlar; T.Choriev Y.Azimov, F.M.Qosimov, S.Avezov, G'.Sayfullaev, B.Jamilova, N.Safarova, F.Safarov, Sh.Istamova, H.Nusratova, katta o'qituvchilar M.Qosimova, N.Adizova, N.Tosheva, M.Hakimova, Z.Umurov o'qituvchilar R.Jumaev, G.Umarova, M.Ro'ziyeva, I.Davronov, M.Akramova, H.H.Raxmatov, R.Qo'ldoshev.

Kun tartibi:

2018-2019 o'quv yiliga mo'ljalangan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

M.X.Maxmudov (kafedra mudiri): Kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar tayyorlanganligini aytib o'tdi. Barcha o'quv-uslubiy majmualar uchun taqrizlar mavjud va ularni muhokama qilgan holda tasdiqlab berishlarini so'radi.

Yig'ilish kotibasi H.Ch.Husratova va kafedra azolari muhokamasiga quyidagi o'quv-uslubiy majmualarni taqdim etdi.

1. Matematika 2-kurslar (BTU) – Tuzuvchilar.Katta o'qituvchi: Qosimova M

2. Matematika o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) – Tuzuvchi dots. Qosimov F.M, o'qituvch M.Hakimova.
3. Mehnat o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) - Tuzuvchilar: dots. M.M.Tilavova
4. Matematika 2-kurs (BTU) - Tuzuvchi: o'qituvchi :Yo'ldoshov B.N.
5. Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish III-kurs - Tuzuvchi: O'qituvchi Umarova G.U.
6. Ona tili 1-2-3-4-kurslar (BTU) - tuzuvchilar: dots. F.Safarov, M.Ro'ziyeva
7. Ona tili o'qitish metodikasi 2-3-kurslar (BTU) - tuzuvchilar:dots. A.Hamroyev, o'qituvchi N.Adizova
8. Ona tili va adabiyoti 2-kurslar(BTU)- tuzuvchi: dots. B.Jamilova
9. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi 2-3-kurs (BTU) – tuzuvchi: dots. G'.Sayfullayev
10. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti 1-2 kurs – (MT)o'qituvchi I.Davronov
11. Pedagogika fanlari o'qitish metodikasi 4kurs.- MT- O'qituvchi I.Davronov
12. Qiyosiy pedagogika 2-kurs Katta o'qituvchi N. Tosheva
13. Umumiy pedegogika 1-kurs BTU(r)- I.Davronov

Yuqoridagi o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi yuzasidan dotsentlar G'.Sayfullayev, F.Qosimov, Y.Azimov o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar.

KAFEDRA YIG'ILISHI QAROR QILADI.

1. Kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019 o'quv yili uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmualar tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning tasdig'i fakul'tet kengashidan so'ralsin.

Yig'ilish raisi:

M.X.Maxmudov

Yig'ilish kotibasi:

H.Ch.Nusratova

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Ilmiy kengashining 1-yig'ilishi

bayonnomasidan ko'chirma

Buxoro Sh.

2018-yil ___ avgust

Qatnashdi: Ilmiy kengash a'zolari va fakul'tet o'qituvchilari

Kun tartibi:

O'quv uslubiy majmualarni tasdiqlash.

A) "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası professor o'qituvchilari tomonidan o'quv-uslubiy majmualar muhokamasi.

Eshitildi:

B.UMAROV fakul'tet dekani – Fakultet jamoasi O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni bajarishga katta e'tabor berib kelmoqdalar. Jumladan, o'quv uslubiy, ilmiy, tadqiqot va ma'naviy-marifiy ishlar salohiyatini yanada oshirish maqsadida ishchi o'quv rejalari, ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, reyting ishlanmalarining yangi variantlarini ishlab chiqish; bitiruv malakaviy ishlari va kurs ishlari sifat darajasini yanada o'stirish; pedagogik amaliyot mazmuni yangi yangi materiallar bilan boyitilib, darslarni sifatli o'tishga erishish; talabalardan fanlar bo'yicha mantiqiy fikrlay olish malakasini o'stirib borish; aspirantlar ilmiy tadqiqot ishlarini jonlantirish; darslik, o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlash shu tarzda tashkil etishni ta'kidladi.

Hozirgi kunda “Boshlang`ich ta`lim” kafedrası professor-o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019-o`quv yili uchun mo`ljallangan o`quv-uslubiy majmualar tayyorlanganligi hamda ushbu o`quv-uslubiy majmualar kafedraning 2018 yil ___ avgust 1-yig`lishida muhokama qilinganligi aytib o`tib, fakul`tet ilmiy kengash a`zolari tomonidan ushbu jmualarni tasdiqlab berishni so`radi.

So`zga chiqdilar:

F.M.Qosimov (Boshlang`ich ta`lim kafedrası dotsenti): - Chindan ham kafedramiz o`qituvchilari tomonidan o`quv-uslubiy majmualar tayyorlangan. Bu majmualardan o`quv jarayoniga kerak bo`ladigan barcha meyyoriy hujjatlar o`z aksini topgan bo`lib, ta`lim samaradorligini oshirishda bevosita xizmat qiladi. Shu sababli yuqoridagi majmualarni tasdiqlab berishingizni so`rayman.

Qaror qilindi:

1. “Boshlang`ich ta`lim” kafedrası o`qituvchilari tomonidan tayyorlangan 2018-2019- o`quv yili uchun mo`ljallangan o`quv uslubiy majmualar tasdiqlansin.
2. Tasdiqlangan o`quv-uslubiy majmualar o`quv jarayoniga tadbiq etilsin.

Yig`ilish raisi:

B. UMAROV

Yig`ilish kotibi:

H. M. NUSRATOVA

Mundarija

I. O`quv materiallar	bet
O`tilayotgan fanning asosiy nazariy materiallari.....	bet
Amaliy va Laboratoriya mashg`uloti mavzulari.....	bet
II. Mustaqil ta`lim mashg`uloti mavzulari.....	bet
III. Glossariy.....	bet
IV. Ilovalar:.....	bet
Fan dasturi.....	bet
Ishchi fan dasturi.....	bet
Tarqatma materiallar.....	bet
Testlar	bet
O`UMning electron varianti.....	bet

TABIATSHUNOSLIK O'QITISH METODIKASI FANINI O'RGANISH BO'YICHA

MA'RUZALAR MATNI

1-Mavzu :

1- Mavzu: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari.

Reja:

- 1. Tabiatshunoslik tushunchalarning klassifikatsiyasi.**
- 2. Tabiatshunoslik tushunchalarining shakllantirish bosqichlari.**
- 3. Umumiy, geografik va biologik tushunchalar, tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari.**

Tayanch so'zlar va iboralar.

Tur, avlod, oila, sinf, tip, umumiy tushunchalar, yakka tushuncha, yig'ma tushunchalar,

Boshlang'ich sinflarda tabiat to'g'risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat jismlari va hodisalari, o'simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatlikni muxofaza qilish, yilning fasllarida qishloq xo'jalik mehnati to'g'risida tasavvur va tushunchalar, oddiy jo'g'rofik tasavvur hamda tushunchalar kiradi. Atrof olam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bosqichi-bolalarning barcha yangilarni qarab chiqishga iloji bo'lsa ushlab

ko`rishga qaratilgan tug`ma intilishdir. Shunga ko`ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga o`quvchiga o`rganish ob`ekti bilan bevosita muloqotda bo`lish imkoniyatini berishi kerak. Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o`quvchilar kundalik xayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o`xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikt bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to`g`risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig`indisi uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismlari yoki ob`ektlarining birortasi to`g`risida bolalar qanchalik ko`proq fikr aytasalar, tushunchalar mazmun jihatdan chuqurroq bo`ladi.

Tabiatshunoslikni o`rganishda bolalar oladigan tushunchalar jo`g`rofiy (umumiy, aloxida va yig`ma) va biologik (tur va avlod) tushunchalariga bo`linadi.

Tabiatshunoslik tushunchalari- bu umumiy muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob`ektlar, hodisalar, jismlarining butun guruhi to`g`risidagi umumlashtirilgan bilimlardir.

Tushunchalar tasavvurlardan farqlidir.

Tasavvur- sezgi organlar faoliyatining, hotiraning yoki tasavvur qilish mahsulidir.

Tushuncha – tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Tushuncha butun narsalar sinfiga taaluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi.

Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o`rtasida keskin chegara yo`q. Tasavvurlar mazmunning

boyib borishi, ularda narsalarning muhim xossalarini tobora ko`proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi va tushunchalarga aylanadi. Tabiatshunoslikni o`rganishda bolalar Toshkent, Sirdaryo, Tyan`-SHan` tog`lari kabi yagona tushunchalar; tog`lar, daryolar, shaharlar kabi umumiy tushunchalar; archa, qarag`ay, tyerak, namatak, jasmin, oq quyon, kulrang quyon kabi tur tushunchalari; daraxt, buta, quyonlar va boshqa avlod tushunchalari bilan uchrashadilar. Tabiatshunoslikni o`qitish jarayonida jo`g`rofiy tushunchalarini biologik tushunchalar bilan bog`lanishiga e`tibor bermoq zarur. Maktabda o`qishning birinchi yilida bolalar atrof olam bilan tanishish o`quv kitobidan yertak va hikoyalarni o`qish, tabiatdagi kuzatishlar asosida o`simlik va hayvon organizmlari to`g`risida umumiy **oddiy** tabiatshunoslik **tushunchalarini** oladilar. Kelgusi sinflarda ular tajribalar o`tkazishda, kuzatishlar, ekskursiyalar, amaliy ishlar vaqtida tabiat to`g`risidagi **konkret tushunchalarga** ega bo`ladilar.

Umumiy tushunchalarni shakllantirishda o`qituvchi:

✓ ob`ektlarni maqsadga yo`nalgan holda qabul qilib olishlinishni tashkil qilishi;

✓ tabiat jismlari va hodisalari to`g`risida har bir yangi tushunchani tahlil qilishi va barcha narsalarda, ilgari o`zlashtirilganlarda takrorlanadigan muhim belgilarni ajratishi;

✓ ikkinchi darajali uncha muhim bo`lmagan barcha belgilarni mavhumlashtirish, buning uchun uncha muhim bo`lmagan turlanadigan belgili, lekin muhim belgilarini saqlagan (lola va binafsha, boychechak va lola) narsalardan foydalanish lozim.

Tabiatshunoslik tushunchalarni shakllantirishda har xil operatsiyalar: sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirishdan foydalanishga alohida ahamiyat berilish kerak.

Yakka tushunchalar – bu yoki boshqa narsalarga, hodisalariga xos boʻlgan yakka belgilardir. Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustaxkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa obʻekt boʻlmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiy tushunchani ochishga alohida eʼtibor berish lozim. Tabiatshunoslik darslarida yakka tushunchalardan tashqari **yigʻma tushunchalar** ham shakllanadi. Ular umumiy belgilarga ega boʻlgan yakka tushunchalardat tarkib topadi. Yigʻma tushunchalarga kiradigan har bir yakka tushuncha oʻzining individual hususiyatini saqlaydi. Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish- kuzatishlarga asoslanib, oʻrganilayotgan narsa yoki hodisa toʻgʻrisida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda toʻgʻri boʻlishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil boʻlishida obʻektlar va koʻrgazma matyerialning har xil turlari katta ahamiyatga egadir.

Oʻquvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning oʻzlashtirilishiga yerishish mumkin emas.

Tabiatshunoslik tushunchalarni oʻzlashtirishda predmetlararo bogʻlanishlar (musiqqa, oʻqish, matematika, ona tili, mehnat, rasm) katta ahamiyatga ega.

Predmetlararo aloqalardan muntazam ravishda foydalanish bolalarning ilgari olingan bilimlarni qoʻllanishiga, oʻquv faoliyatning barcha turlaridan mantiqiy bogʻlanish oʻrnatishga oʻrgatadi. Oʻqituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlari boʻyicha oʻquvchilar bilimini obʻektiv baholashi mumkin. Tushunchalarni oʻzlashtirishning qadrini bilish oʻqituvchiga oʻqitishning borishini fahmlashga, bilimni oʻzlashtirish jarayoniga toʻgʻri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib oʻqituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qoʻllanadi.

2- Mavzu: Tabiatshunoslikni o`qitish metodlari.

Reja:

- 1. O`qitish metodning modeli, metodlar klassifikatsiyasi.**
- 2. Metodik uslublar, tabiatshunoslikni o`qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar.**
- 3. Tabiatshunoslik metodlarini tanlash.**

Tayanch so`zlar va iboralar.

Metodlar, uslublar, Tasviriy qurollarni, tabiiy qurollar, takrorlovchi suxbat.

Ta`lim-tarbiya jarayoni-bu o`qituvchining o`rgatuvchilik faoliyati bilan o`quvchilarning o`qish faoliyatining uyg`unlashishidir. O`qitish metodi - o`qituvchining bilimlar berish va ularni o`quvchilar o`zlashtirib olish usuli.

O`qitish metodlari haqidagi masalalar-tabiatshunoslikni o`qitishda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. U tabiatshunoslik tasavvurlari, yuqori ta`lim va tarbiya ishlarida katta imkon yaratadi.

Tabiatshunoslikni o`qitish metodlari 3 ta guruxga bo`linadi:

1.Og`zaki metodlar (o`qituvchining matyerialni og`zaki bayon qilish, suxbat, kitob bilan ishlash).

2. **Ko`rgazmali metodlar** (namoyish qilish) (ko`rsatish), mustaqil kuzatishlar, ekskursiya jarayonida kuzatishlar olib borish).

3. **Amaliy metodlar** (og`zaki va yozma mashqlar, grafik) (chizma) va (laboratoriya ishlari).

Metodik uslub- bu faqat metodning unsurlaridan biri, uning tarkibiy qismi (ko`rgazmali qurollarni, kinofilmlarning fragmentlarini, diafilm, diapozitivlarni ko`rsatish, doskadagi temalarni, rasmlarni foydalanish tajribalarini namoyish qilish, maktab oldi maydonchasidagi amaliy ishlar faoliyatini ko`rsatish va boshqalar). Metodlar va metodik uslublar bir-birlari bilan chambar-chas bog`liq. Masalan, didaktik birligini olsak o`quvchilar bajaradigan tajribalar o`qitish metodi hisoblanadi, tajribani o`qituvchi tomonidan hikoya vaqtida namoyish qilinishi metodik usul. Yoki metod va uslublar bir-birlarini to`ldiradi va o`rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarini bolalarning qabul qilishini yaxshilaydi, to`g`ri shakllanishiga katta yordam qiladi.

Hikoya O`quvchilarga bilim berishning yetakchi metodi o`qituvchining jonli so`zi – hikoyadir.

O`qitish amaliyotida hikoyaning bir necha turi mavjud: aytib berish, ta`riflash, xarakterlash, tushuntirish, muxokama qilish.

Aytib berish- bayonning shunday turiki, unda konkret fakt va voqea, jarayon yoki xarakterlar haqidagi ravon gapirib beriladi. Hikoya shoxod tomonidan olib boriladi.

Ta`riflash- muallif borliq jismlar va hodisalarning xususiyatlari haqida izchil bayon qilinadi.

Xarakterlash- jism va hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o`tishdan iborat.

Tushuntirish- bayonning bir turi, unda yangi tushunchalar, atamalar ochib beriladi, sabab- oqibatlar bog'lanishi, tobe'lik belgilanadi (hodisani mantiqiy tabiati ochib beriladi).

Muxokama qilish- bayon qilish bo'lib, unda o'quvchilarni xulosa va xotimaga olib keluvchi qoida va isbotlarning izchil rivojlanishi beriladi. Hikoyaning bu turida o'rganilayotgan hodisani taxlil qilish zarur bo'lganda foydalaniladi.

Hikoyaning xar qanday turi ushbu didaktik talablarga: tanlangan matyerialning ilmiyligi va yuqori g'oyaviyligiga; mantiqiy izchillik va isbotlanuvchanligiga; o'qituvchi nutqini tasviriy va hisobiy bo'lishligiga javob berishi kerak.

Suxbat metodi tabiatshunoslik darslarida hikoyaga qaraganda ko'proq qo'llaniladi. Bu metodning mohiyati shundaki, u o'qituvchiga o'quvchilarni yaxshiroq bilib olishga imkon beradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, jamoa ishiga jalb qiladi.

Suxbat yangi matyerialni o'rganishda, kuzatishlar yoki amaliy ishga yakun chiqarishda, ekskursiyalar o'tkazishda, o'rganilgan matyerialni takrorlashda, shuningdek, tajribalarni qo'yish va namoyish qilishda, tabiiy, tasviriy hamda ekran vositalari, darslik, sinfdan tashqari o'qish uchun adabiyot bilan ishlashda qo'llaniladi.

Suxbar qanday didaktik masalalarni yechishiga qarab: kirish suxbati, takrorlovchi suxbat, bayon qiluvchi suxbat va yakunlovchi suxbat turlariga bo'linadi.

Kirish suxbati yangi bo'lim yoki yangi mavzu o'rganish oldidan foydalaniladi. Uning maqsadi o'quvchilardagi darsda o'rganiladigan masala bo'yicha tasavvurlarini aniqlash yoki tiklash. *Takrorlovchi suxbat* o'rganilingan matyerialni mustaxkamlash va faxmlab olishga yordam beradi.

U yangi matyerialni o`rganilgandan keyin shu darsning o`zida, yoki mavzu, yoki bo`lim o`rganilgandan keyin o`tkaziladi va 5 daqiqadan 25 daqiqagacha vaqt olishi mumkin.

Bayon qiluvchi suxbat o`quvchilarning o`zlari tomonidan borliqni jism va hodisalarni kuzatishini nazarda tutadi. O`qituvchi tomonidan yo`naltirilgan o`quvchilar o`zlari uchun yangi ob`ekt va hodisalar bilan tanishadilar.

Bayon qiluvchi suxbat tadqiqiy xaraktyerga egadir, chunki u o`quvchilarning tabiiy ob`ektlarini kuzatishlariga asoslanadi. *Yakunlovchi suxbat* o`quvchilar o`rganilgan mavzu bo`yicha xulosa chiqara olishlari uchun o`tkaziladi. Bundan tashqari tasviriy qurollarni ko`rsatish asosida va o`qilgan darslik maqolasi asosida suxbatlar o`tkazish mumkin. Tasviriy qurollarni ko`rsatish asosidagi suxbat surat va rasmlardan foydalanilganda, yordamchi savollar bilan suratni taxlil qilish orqali yangi ma`lumotlar oladi. *O`qilgan darslik maqolasi asosida suxbatning* maqsadi-tabiati hodisalarni bolalar tomonidan to`g`ri tushunilganligini aniqlash, tabiatshunoslik maqolasini o`qitishdan olingan yangi bilimlarni mustahkamlash va tizimga solish. Pedagogik texnologiya — ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usullardir.

Pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyati demakdir. Muammoli o'qitishning asosi — o'quvchilar bilish faolligini rivojlantirishdir. Muammoli o'qitishni o'z ichiga olgan darslarda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zida saqlagan masalalarni hal qilish taklif etiladi, yoki ular bilimlarni o'zlashtirish va ularni amalda mustaqil qo'llanish usullarini egallab olsinlar.

Muammoli dars quyidagi bosqichlarga bo'linadi: darsda qo'yilgan muammoga o'quvchilarda qiziqish, yangi bilimlar olishga ehtiyoj uyg'otish, uning bilim olish tizimidagi ahamiyatini ko'rsatish.

3-Mavzu: Tabiatshunoslikni o`qitish metodlari. (2 soat).

Reja:

1. Metodik uslublar.

2. Tabiatshunoslikni o`qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar.

Tayanch so`zlar va iboralar.

Fenologiya, tabiat jismlari, tabiat hodisalari, ekskursiya, sayohat, sayr, Tajriba, amaliy ishlar.

Kuzatish metodi tabiatni o`rganishning ko`rgazmali metodidir. Kuzatish vaqtida o`quvchilar tabiat jismlari va hodisalari ularning xususiyat va sifatlari, ular o`rtasidagi bog`lanishlar haqida tasavvurlar oladi. Kuzatish vaqtida o`quvchilar tomoshabingina bo`lib qolmasdan, narslarning xarakterli xususiyatlarini bilib olishga intiladi. Kuzatish jarayonida amaliy xaraktyerdagi bilimlar o`quvlari hosil qilinadi. Uzoq muddatli kuzatishlarga o`simliklarning o`sishi, daraxt bariglarining o`zgarishi, qushlarning uchib ketishi. Kuzatishlar kollektiv yoki yakka holda olib boriladi. Kuzatishga oson uddalasa bo`ladigan ob`ektlarni olgan yaxshi. Boshlang`ich sinflar uchun o`lkashunoslik kuzatishlari sistemali bo`lgan yaxshi. Kuzatishlarning natijalari yil fasllari bo`yicha kuzatishlar kalendarida belgilab boriladi. Javobi o`qituvchi tomonidan baxolanib, kuzatish kallendariga yoziladi. Tabiat va mexnat kallendarida yozilgan

ma'lumotlarni faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas matematika, ona tili, mexnat ta'limi darslarida ham uyushtirgan yaxshi. Kuzatuvchanlik yaxshi yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarga biror narsani ko'rsatib turib nimaga o'xshashligini, etiborini narslar o'rtasidagi farqlarga qaratish mumkin. Kuzatuvchanlik ekskursiya o'tkazish vaqtida rivojlanadi.

Tajriba metodi tabiatshunoslikni o'qitishning amaliy metodidir. Tajriba - o'qitish metodi bo'lib, uning yordamida o'quvchilarda boshqa metodlar bilan egallash mumkin bo'lmaydigan tabiatshunoslik tasavvurlari shakllanadi. U o'quvchilarga mavxum tushunchalarni konkret tushunchalarga aylantirishda katta yordam beradi. Oddiy tajribalar uyda, murakkabrog'ini o'qituvchi darsda namoyish qiladi. U o'quvchilarga konkret bilib berish uchungina emas, natijalarini o'zlari ta'riflashga yordam beradi. Tajribaning borishini kuzatib, o'quvchilar kuzda nima uchun quyosh yer ustida kun sayin pasayishi to'g'risida xulosalar chiqaradi. Matyerialni mustahkamlash uchun rasmlarini chizadi, ularni ta'riflab yozadi. Tajribani o'quvchilar matyerialni chuqurroq o'zlashtirib olishlari uchun mavzuni o'rganishdan oldin savollar o'quvchilarni fikrlash faolligi orttiradi. Tajriba so'ngida o'quvchilar xulosa qilsin, uning asosida qaysisi to'g'ri, qaysi biri xato ekanligiga ishonadilar. Tabiatshunoslik o'qitish metodlari sistemasida **amaliy ishlar** katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar-bu o'quv ishlarni xar xil mexnat opyerasiyalariga o'rgatish metodi. Amaliy ishlar qatoriga ekskursiya vaqtida tabiiy matyeriallar yig'ish, o'simliklarni parvarish qilish, gyerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali quollar tayyorlash kiradi. Amaliy ishlar dastur va darsliklarda kiritilgan va ularni bajarish majburiy.

Savol va topshiriqlar

1. O'quvchilarning amaliy ishlari tafakkurni rivojlantirish bilan bog'lanadimi?
2. Og'zaki metodlarni xususiyatlari nimada?

3. Uzoq muddatli kuzatishlarga nimalar kiradi?
4. Tabiatshunoslik dasturining 1 mavzusi bo'yicha hikoya tuzing.

**4- Mavzu: Tabiatshunoslikni o'qitishda zamonaviy pedagogic
(didaktik o'yinli, hamkorlikda o'qitish, muammoli, modeli ta'lim)
axborot texnologiyalardan foydalanish.**

Reja:

1. Dasturlashtirilgan o'qitish.

2. «Klastyer» usuli.

Tayanch so'zlar va iboralar.

Dasturlashtirilgan o'qitish uchun, grafik topshiriqlar, muzyorar usuli, klastyer» usuli, mozaika, rasimli rebus.

Atrofimizdagi olam bilan tanishish darslarida dasturlashtirilgan o'qitish, ya'ni amaliy ishlardan, qiziqarli topshiriqlardan foydalanish muammosi o'ta dolzarbdir. Hozirgi paytda o'quvchilarning bilim olish faoliyatini jadallashtirish va ularning atrof-olam bilan tanishtirish darslarida olgan bilimlarini tekshirish maqsadida har bir o'quvchining o'quv jarayonida mustaqilligini ta'minlovchi va o'quv matyerialini o'zlashtirishda yordam beruvchi amaliy ishlar tizimi qo'llanilmoqda. Dasturlashtirilgan o'qitish bosqichma-bosqich bilim olishni kuzatishga imkon yaratadi, o'quv jarayoniga qanday o'zgartirishlar kiritilishi kerakligini ko'rsatadi.

Dasturlashtirilgan o'qitish uchun quyidagilar kerak:

- o'quv matyerialining puxta tahlili, uning qat'iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo'yicha bo'linishi;
- o'quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik.

Dasturlashtirilgan o'qitishda o'quvchilarning o'quv matyerialini qo'llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o'qitish jarayonini individuallashtirish imkoni paydo bo'ladi, texnik vositali o'qitish keng qo'llaniladi, o'qitish va o'quvchi mehnatini oqilona tashkil etishga yerishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o'quvchilarning og'zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqalar bilan yozma ravishda almashishdir. Ularning afzal jihati shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlay oladi.

Tajriba atrof olam bilan tanish darslarida bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatadi. Afzalligi shundaki, o'quv matyerialini o'zlashtirish darajasini o'quvchilarning o'zlari shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin. 2-sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Grafik topshiriqlarini bajarayotganda o'quvchilarga « — » noto'g'ri javob, «l» — to'g'ri javob ekanligini tushuntirish lozim. O'qituvchida esa grafik usuldagi javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo'lishi kerak. Masalan:

21- mart — Navro'z bayrami.

1- sentabr — Ustozlar va murabbiylar kuni.

1- oktabr — Mustaqillik bayrami.

8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

Muzyorar usuli. Bu usulni birinchi dars yoki yangi bo'limni boshlash oldidan o'tkazish maqsadga muvofiq. O'qituvchi navbatdagi o'tiladigan bo'lim yuzasidan qisqacha ma'lumot beradi.

Masalan, «O'lkamizda kuz» bo'limida o'quvchi yil fasllari, paxta tyerimi, ijtimoiy foydali mehnat, kuzgi o'simliklar, hasharotlar hayoti haqida umumiy tushunchalar berib o'tadi. Bu haqda o'quvchilar ham o'z fikrlarini bayon etadilar.

Masalan:

Mening ismim Shuhrat. Menga kuz fasli yoqadi. Chunki kuzda barcha kuzgi mevalar pishadi, «Hosil bayrami»ni nishonlaymiz, ota-onamga qovun-tarvuz yig'ishda yordam byeraman. Men katta bo'lganimda juda chiroyli bog' yarataman. Bog'imda shirin-shakar mevali daraxtlar ko'p bo'ladi.

Mening ismim Komila. Men kuz faslini yaxshi ko'raman. Chunki daraxt barglari juda chiroyli rangda tovlanadi. Dalalarda oppoq paxtalar ochiladi. Paxtadan chiroyli yostiqlar tikish mumkin. Men kelajakda tikuvchi bo'lmoqchiman.

Har bir o'quvchi shu tarzda o'zi hamda tabiatga daxldorlik haqida so'zlaydi. Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradi.

«So'z top» o'yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak.

Masalan: tulki — ilon — ninachi — it — tiprati-kan — nortuya — yalqov (panda) — ayiq — qarg'a — ari va hokazo.

Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klastyer» usuli. Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylash va fikrlarini bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri

yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.«Klastyer» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, «O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar» mavzusi.

«Mozaika», ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To'xtab o'qish» usuli. O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

«Zanjir» usuli. Bu usulni she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga mu-vofiqdir. O'quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'ladi.

«Rasmi rebus» o'yini. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan luyvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, it, laylak, ohu, ninachi — non, Anor, rediska, chinni gul, arpa — Archa.

«Kim tez bajaradi» o'yini. O'quvchilar uch guru liga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1—2 daqiqada) o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari ifiiruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

BBB (bilardim, bildim, bilmoqchiman) o'yini.

Bu o'yinni «Suv — hayot manbayi», «Gigiyena ozodalik» kabi mavzularni o'tgandan so'ng o'y-nash mumkin. O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Uchta guruhga ham jadval beriladi. Uch ustundan iborat bo'lgan jadvalning birinchi ustuniga mustaqil tarzda suv haqida bilganlarini yozish tavsiya etiladi. Ikkinchi ustunga dars davomida hamda darslikdan bllib olgan bilimlarini yozadilar.

Uchinchi ustunga esa imkon qadar bugungi kun tulabi, muammolar, bilishi zarur bilimlar haqida yozadilar.

Masalan:

Bilardim	Bildim	Bilmoqchiman
Itmigsiz	Hidsiz	Zararlanish mumkinmi?
Tiniq	Bug'-par	
Suyuq	Muz-qattiq	Suvsizlikka chidash
Ichiladi	Havo bor	
Yuviriladi	Qum bor	O'zbekistonda daryolar
Loyqa	Shaklsiz	

«Enyerjaynyer» o'yini. Bu o'yindan «Ob-havo», «Qish», «Yil fasllari» kabi mavzular o'tilganda foydalanish mumkin. O'quvchilar doira shaklida turib oladilar. O'qituvchi o'rtada qo'l harakati orqali tabiat hodisalarini avval sekin, so'ng tezlashgan holatda ko'rsatadi. O'quvchilar soat mili bo'ylab ushbu harakatlarni so'zsiz davom ettiradilar.

1. Shamol (qo'llar bir-biriga sekin ishqalanadi, so'ng bu harakat

tezlashadi).

2. Yomg'ir (qo'llar qarsillatiladi).

3. Jala (qo'llar chirmashtirilib, yelkalarga uriladi).

4. Do'l (tizzalarga shapatilab uriladi).

Harakat asta-sekin teskarisiga qaytariladi.

«O'z guruhingni top» o'yini. O'quvchilarga rangli

buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. Mushuk (miyov-miyov).

2. Kuchuk (vov-vov).

3. Xo'roz (qu-qu-qu-qu).

4. Sigir (mo'-mo').

Guruhga bo'linib olganlaridan so'ng guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so'zlab beradilar.

5- Mavzu: Metodik uslublar ularning turlari, tabiatni, odamlar mehnatini o'rganishdagi xususiyatlari. Tabiatshunoslik metodlari tanlash va o'quv jarayonida to'g'ri qo'llash.

Reja:

1. Metodik usublarning turlari.

2. Tabiatshunoslik metodlarini tanlash va o'quv jarayoniga to'g'ri qo'llash.

Tayanch so'zlar va iboralar.

Gyerbariy, kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, amaliy uslub.

Amaliy uslublar o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo'naltiriladigan, o'quvchilar fikrini rivojlantirishga mo'ljallagan so'z, ko'rgazmalilik va amaliy ishning o'zaro murakkab bog'lanishida bo'lishini ko'rsatadi.

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining faol faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan matyerialni chuqur tushunib yetishga, ko'riikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

1. O'quvchilarning tarqatma didaktik matyerial bilan turli narsalar yasashi;
2. Rasm chizishi;
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari;
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari;
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.

Tabiatshunoslik darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalarni yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni

o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. O'simliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari tizimida amaliy ishlar. Tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda amaliy ishlar katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktabdagi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi o'simliklarni parvarish qilish, g'erbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

6- Mavzu. Tabiatshunoslikdan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari

(dars, uning turlari)

Reja:

- 1. Dars - o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli.**
- 2. Tabiatshunoslik darslarining tiplari va turlari.**
- 3. Darslarga qo'yiladigan didaktik, tarbiyaviy, psixologik va gigiyenik talablar.**

Tayanch so'zlar va iboralar.

Ekskursiya darslari, laboratoriya darslari, geografik maydonchadagi dars, aralash, dars, predmetli dars.

Dars - o'qituvchining sinf bilan olib boradigan ta'lim tarbiya ishlarini tashkil qilishning asosiy shaklidir. Dars butun ta'lim-tarbiya tizimida, o'qitishning metodlari, uslublar va vositalar kopleksi amalga oshadi.

Tabiatshunoslik darslarida o`quvchilar dasturga ta`lim muvofiq o`qituvchi rahbarligida nazariy bilimlar, amaliy o`quv va kunikmalar oladilar. Matyerialni o`quvchilarga tushunarli bayon qilib xilma-xil qurollardan foydalanib, o`qituvchi zarar tushuntirishlar beradi, o`qish kitobi bilan mustaqil ishlash, o`z bilimlarini amalda foydalanish uquvlarni singdiradi.

Darslarning maqsadi va mazmuni xar xil, ammo ularning barchasida umumiy maqsad - o`quvchilarning kompleks tarbiyasi va tushunarli bo`lgan bilimlarni bayon qilish, birlashtirishda o`qituvchi o`quvchilar ishini shunday tashkil qilishi kyeragi, ular darsda o`rganiladiganlarni ilgari o`tilganlar bilan bog`lanishini tushunsinlar matyerialni ongili uzlashtirsinlar.

Dars o`tishda o`qituvchi o`quvchilarning faol ishlashlari uchun sharoit yaratishga, ulardan jonli qiziqish uyg`otishga intilishi kerak.

Darsda ko`rgazmali qurol va tajribalarni namoyish qilish bilan boradigan hikoya, suxbat, amaliy ish metodlari qullanilishi mumkin. Darsla xar xil metodlarning qo`llanishi yangi mavzuni to`liq va ravshan yoritishga imkon beradi, o`quvchilarni kamroq charchatadi, ular faoligini oshiradi.

Maqsadi va mazmuni jixatdan har xil bo`lgan darslar turlicha temada tuzilishi mumkin. Odatda dars kuyidagicha temada tuziladi:

1. Tashkiliy qism.
2. Uy vazifalarining bajarilishini tekshirish.
3. YAngi matyerialni o`rganish.
4. Darsda o`rganilgan matyerialni tekshirish va mustahkamlash.
5. Qiziqarli matyeriallardan foydalanish.

6. Uyga vazifa berish.

Tabiatshunoslik struktura qismlarining izchilligi bilan xilma-xil bo'lishi mumkin: bir xil darsda o'quvchilarning mustaqil ishlar yangi bilimlarni bayon qilishdan keyin o'tkaziladi, boshqalar undan oldin bo'ladi: uy vazifasini tekshirish darsning boshida kelgusi bosqichlarida olib borilishi: darsning qismlari almashinibgina qolmasdan, balki takrorlanishi ham mumkin. Chunonchi, yangi matyerialning baen qilinishi mustaqil ishlar bilan navbatlashti-rib, bir necha qismlarga ajratish mumkin. Ba'zi qismlar dars strukturasidan tushib qolishi mumkin. Masalan, hamma darslarda ham o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilina byermaydi. Dars strukturasini kurs temasi bo'yicha darslarning umumiy sistemasida uning qanday o'rin egallaganligiga bog'liq, ammo qanaqa bo'ldishidan qat'iy nazar har bir dars tashkiliy, mantiqiy, psixologik jihatdan bir butun bo'lishi kerak. Metodik jixatdan to'g'ri tuzilgan darsda barcha bu tomonlar o'zaro bogliqdir. Xar qanday dars tuzilishining to'g'ri bo'lishi uchun shu tema bo'yicha darslarning butun sistemasini va unda ayrim darsning o'rnini tasavvur qilish kerak. Bu darsni rivojlantirishda, istiqbolda ko'rishga barcha darslarning mantiqiy bog'lanishiga yerishishga va shunga asoslanib, har bir darsning asosiy ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari hamda didaktik maqsadini hal qilishga imkon beradi. Tabiatshunoslik darsining didaktik maqsadini aniqlash-bu uning asosan nimaga yangi maqsadni o'rganishga uni mustaxkamlashga, takrorlashga va sistemalashtirish eki o'zlashtirishni tekshirish va xisobga olishga bag'ishlanishini belgilash demakdir.

Tabiatshunoslik darsi didiktik maqsadga ko'ra turli tiplarga ajratish mumkin:

- birlashtirilgan (aralash) dars;
- yangi matyerial o'rganiladigan dars;
- mustahamlash darsi;
- predmetli dars;

- o`quv uchsatkasida dars;
- maktab jug`rafiya moydonchasida o`tkaziladigan dars;
- takrorlovchi va umumlashtiriuchi dars.

Darsning qaysi tipi tanlanmasin, uning muvoffaqiyatli o`tkazilishi o`qituvchining sistemali va har tomonlama tayyorlanishiga bog`liqdir.

O`qituvchi yaxshi darsga butun umr tayyorlanadi. Kasbimizning ma`naviy hamda falsafiy asosiy va mehnatimizning texnologiyasi shunaqa: o`quvchilar oldida bilim chaqmoqlarini ochish uchun o`qituvchi inson donoligidan, bilimlar quyoshning abadiy yorituvchi nurlaridan bir daqiqa ham ketmasdan yorug`liq dengizini yomirishi kerak.. Dars bu o`qituvchining umumiy va pedagogik madaniyatining ko`zgusi, intellektual boyligining o`lchovi, uning bilim doirasi, yerudisiyasi (bilimdonligi)ning ko`rsatgishidir.

Tabiatshunoslik darslariga qo`iladigan **umumiy talablar** qo`yidagi vazifalardan kelib chiqadi: o`quvchilarni tabiatdagi umumiy o`zgarishlar to`g`risida, o`z o`lkasining tabiati to`g`risida, vatanimiz tabiatining xilma-xilligi to`g`risida, yerning shakli va rel`efi to`g`risida, odam organizmi va uning salomatligini muxofaza qilish to`g`risida bilimlar bilan qurollantirish; botanika, jo`g`rofiya, yuqori sinflarda anatomiya bo`yicha o`quv matyerialini o`zlashtirib olishga tayyorlashga yordam beruvchi puxta o`quv va ko`nikmalarni shakllantirish; o`qitishning tarbiyaviy samaradorligini oshirish; tabiatshunoslik o`rganishda qiziqishni shakllantirish.

Tabiatshunoslik darslari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, o`quvchilarning g`oyaviy-siyosiy, mexnat, axloqiy, estetik va jismoniy birligini ta`minlaydi. Ayniqsa tabiatshunoslik darslari ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun boy matyerial beradi.

Tabiatshunoslik darslariga qo`yiladigan didaktik talablarga darsga ajratilgan vaqtdan oqilona foydalanish, dars temasi maqsadi va vazifalarini

to`g`ri qo`yish bilan ta`minlanadi. Dars vazifalarini belgilash, o`qituvchi uning muvofiqroq strukturasi tanglashga kirishadi, yani so`rash, tushuntirish, mustaxkamlash, yangi va ilgari o`zlashtirilganliklarini nazorat qilish, bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirishlarini qanday izchilikda o`tkazish kerakligani, so`rashning qaysi turidan yakka yoki frontal so`rashdan foydalanilishini uylab chiqadi.

Psixologik talablar. Tabiatshunoslik darsining plan va konspektini tuza turib, o`qituvchi har bir o`quvchining psixologik xususiyatlarini: uning tipini; tanib olish, eslash, yod olish, fikrlarni tiklash diqqatning mavjudligini, xayolini, irodasini, xissiy faolligini xisobga olishi kerak.

Sanitar-gigienik talablar. Sinfda tegishli harorat tartibini, yoritish normasiga va boshqa higienik talablarga rioya qilish bolalar salomatligining garovidir. SHuning uchun ham o`qituvchi ularga rioya qilishini kuzatib borishi bolalarning va jismoniy va aqliy jixatdan charchab qolmasliklariga yerishishi kerak. Aqliy jixatdan charchashni oldini olish uchun o`quv ichidagi bir hillikdan. Bayonni bir ohangda bo`lishidan ehtiyot bo`lish, nazari matyerialni bir hil sezgi organlarini ishga jalb qilish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar bilan almashtirib borish kerak. Tabiatshunoslik bo`yicha yulga qo`yilgan sinfdan tashqari ish o`quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan. Bolalar bilan maktablarda darsdan tashqari vaqtlarda har xil mashg`ulotlar o`tkazadi: Masalan, ekskursiyalar, to`garak ishlari, yertaliklar, sinfdan tashqari o`qishlar, klub ishlari va boshqa ishlar. Bu ishlar o`qituvchilarning rahbarligida o`quvchilarning qiziqishlarini o`rgatish va maab dasturini kengaytirish, to`dirish maqsadida olib boriladi. Tabiatshunoslik bo`yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish va konkretlashtirish. Tabiatni o`rganishga qiziqish uyg`otish, o`quvchilar faolliga va mustahkamlligini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuni bilan bir qatorda sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega,

chunonchi u o`quvchilarning xulq-atvoriga ta`sir ko`rsatadi. Moddiy dunyo qarashini va mehnat madaniyatini shakllantiradi, bilimga qiziqishi bilan mustaqil kuzatish ko`nikmalarini rivojlantiradi jamoaga va tabiatga muxabbatni tarbiyalaydi. Tajribalar o`tkazish gyerbariy va kolleksiyalar uchun matyerial yig`ish, model, maket va boshqa ko`rgazmali qurollar yasash, jonli tabiat burgagi va o`quv tajriba maydonchasidagi ishlar sinfdan tashqari ishlar tabiatni o`rganishni xayot bilan bog`laydi va shuningdek politexnik tayyorgarlik uchun ham ahamiyati katta. O`quvchilarning kuzatishlari, ijtimoiy foydali faoliyatlari ularni mehnatga o`rgatadi va vatvanparvarlik tarbiyasiga yordami bo`ladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Tabiatshinoslik darslariga qanday talablar qo`yiladi? Predmetli dars qanday tashkil qilinadi? Tabiatshunoslik darslari orasida ekskursiya darslari qanday o`rin egallaydi? Ekskursiya o`tkazishda qanday metodikadan foydalaniladi?

2. Tajriba maydonchasida o`tkaziladigan dars qanday tashkil qilinadi?

3. Kino va teledarslar qanday o`tkaziladi?

4. 1-sinf uchun tabiatda ekskursiya va kuzatishlar o`tkazilgandan keyingi izoxli o`qish reja va konspektisini tuzing.

5. Individual ishlar qanday olib boriladi?

6. Tanlangan mavzu bo`yicha o`qituvchilar ma`ruzani, ko`rgazmali qurollarni, ashulalarni, musiqali nomyerlarni o`z ichiga olgan yertalik rejasini tuzing.

7-Mavzu: Tabiatshunoslikdan o`quv ishlarini tashkil etish shakllari

(sinfdan tashqari ishlar) (2 soat)

Reja:

1. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni.

2. Ekskursiya.

Tayanch soʻzlar va iboralar.

Toʻgarak, ommaviy ishlar, individual ishlar, tirik tabiat burchagi, maktab er tajriba maydonchasi.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni. Sinfdan tashqari ishlarga tabiatni oʻrganish va muxofaza qilish, oʻsimliklarni oʻstirish hayvonlarni parvarish qilish bilan bogʻliq boʻlgan har xil ishlar kiradi. Bu mashgʻulotlar darslarni takrorlamasligi kerak. Oʻquvchilar eʼtiborini tabiat, maktab jonli burchagi, oʻquv-tajriba maydonchasidagi kuzatilishlarga qaratilishi va maktabni, koʻchani koʻklamzorlashtirishga, qushlarni muhofaza qilishga, qishloq xoʻjaligi zararkunondalarga qarshi koʻrash boʻyicha foydali mehnatni tashkil qilishga, tabiatdagi amaliy ishlar, kuzatishlar, tegishli kitoblar oʻqishga qaratilishi kerak.

Tabiatshunoslik boʻyicha sinfdan tashqari ishlar uch guruhga boʻlinadi:

1. Oʻquvchilarni koʻplab qamrab oluvchi **ommaviy ishlar**, tadbirlar.
2. Cheklangan oʻquvchilar doirasida olib boriladigan **toʻgarak ishlari**.
3. Tabiatni oʻrganishga qiziqqan ayrim oʻquvchilar bilan olib boriladigan **individual ishlar**.

Ommaviy ishlarga: kinofilmlarni namoyish qilish, tabiatga ekskursiyalar oʻtkazish, yertaliklar, oʻquvchilar ishlarining koʻrgazmasini tashkil qilish, shuningdek hosil kuni, bogʻ haftaligi, daraxtlar oʻtkazish haftaligi, qoʻshlar kuni va boshqalar kiradi.

Guruh ishlariga: esa yosh tabiatshunoslar, klub ishlari kiradi.

Individual mashg'ulotlarga: devoriy gazetalar, al'bomlar chiqarish, jonli tabiat burchagi, o'quv tajriba maydonchasidagi ishlar, darsdan tashqari o'qish va boshqalar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlarning hammasi bir-birlarini to'ldiradi va takomillashtiradi. Individual topshiriqlar o'quvchilarni o'qituvchining tavsiyasini bajarishda qiziqish o'ygotadi. Uqituvchi shu bir nechta o'quvchilardagi qiziqishlarni aniqlab ularni to'garak yoki klubga birlashtiradi. Bunday birlashmalar sinfdan tashqari tadbirlarning tashkiliy markazi bo'lib qoladi. Endi mashg'ulotlar muvoffaqiyatli o'tishi uchun turli tayyorgarlik va ko'p sonli ishtirokchilar kerak bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar tashiliy shakli, mazmuni, o'tkazish metodlari xilma-xil bo'lishlari kerak, lekin mazmuni doimiy bo'lmaydi. O'quvchilar tariqasi, yoshi, qiziqish va ehtiyojiga, yil fasli, xona va jihozlariga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalaniladigan ishlarning taxminiy ro'yxati quyidagicha bo'ladi:

1. Tabiatga kuzatishlar, tabiy hodisalarning sabablarini aniqlash.
2. O'lkashunoslik muzeyiga)tabiat muzeyiga) dala va fyermalarga ekskursiyalar.
3. Tabiy matyerial to'plash)kolleksiya, gyerbariy, maket, model tuzish.
4. Maktabning atrof tabiat xaritasi va planini tuzish.
5. Ilmiy tabiatshunoslik adabiyoti, jurnal hamda gazetalardagi maqolalarni jamoa bo'lib o'qish.
6. Yangiliklar burchagi uchun adabiyot yig'ish.

Sinfdan tashqari tabiatshunoslik ishlarining metod va uslublarini o'qituvchi oldindan loyihalashtirib qo'yadi. Sinfdan tashqari ishlarning

muvoffaqiyatli o'tishi uchun o'qituvchi xar bir mashg'ulotni to'g'ri tanglaydi, uni o'tkazishning rejasi va metodikasini mo'ljallangan talablarga javob beradigan darajada tanglaydi.

Individual ishlar. Tabiatni bilishga qiziqqan yoki qiziqishga ega o'quvchilar bilan tabiatshunoslik bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarning tabiatga qiziqishini vujudga keltirishda o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muxabbati va tabiatga ehtiyotlik munosabatining o'rnini katta. Individual topshiriqlari bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'quvchilarni nimaki qiziqtirmasin (xona o'simliklarini parvarish qilish), u o'qituvchi tomonidan ma'qullanishi va quvvatlanishi kerak. Individual topshiriqlarning mavzulari o'quvchilarning qiziqishlariga qarab taglanadi mazmuni esa o'qituvchi tomonidan sinchiqlab o'ylangan bo'ladi (masalan, o'rganish ob'ekti, kuzatish joyi belgilanadi, rejasi tuziladi.)

Sinfdan tashqari kitoblar o'qish. Sinfdan tashqari o'qish bolalarga tabiat to'grisidagi kitoblarga muxabbat va qiziqishni singdiradi, uni chuqurroq idrok qilishga imkon beradi, tafakkur va nutqni rivojlantiradi, atrof tabiatga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni ijtimoiy, ommoviy tabiatshunoslik adabiyotni o'qishga, tabiat to'grisidagi kitoblar o'qishga ehtiyoj xosil qilishdir. O'qituvchi o'qish uchun shunday kitoblarni tanglash kerakki, ular bolalarda tabiatni kuzatishga, tabiatshunoslik bilimlarini targ'ib qilish va ommolashtirishga qiziqish o'ygotadi. SHu maqsadda xilma-xil. uslublardan foydalanish mumkin.

Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotda mazmunidagi kitob o'qishni boshlab, eng qiziqarli joyida to'qtatish, toki eshituvchilarda, keyin nimalar bo'lishini bilishga hoxish vujudga kelsin. SHundan keyin doskaga kitobning nomini yozib borish, uni ko'rsatish va mustaqil o'qishni

taklif qilish lozim. O`quvchilarni qiziqtirish uchun o`z asarlarini tabiatga bag`ishlagan kitob mualliflari: X. B. Bianki, S. Singyer, Il`yos Muslim, Shukur Sa`dulla, G. Skrebiskiy, M. Prishvin, A. Strijev, K. Muhammadiy, I. Sokolov-Mikitov, YU. Dmitriev, K. Xikmat haqida hikoya qilib berish mumkin. Tabiatshunoslik adabiyoti bilan ishlashning ancha faol shakllaridan biri suhbatdir, uning jarayonida o`qituvchi o`quvchilarning mustaqil o`qish va muhokama qilish olgan tabiatshunoslik bilimlari saviyasini aniqlaydi, suhbat jarayonida o`quvchilar o`qiganlari to`g`risida fikr aytadilar, bir-birlari bilan tortishadilar, o`z nuqtai nazarlarini tasdiqlaydilar va isbotlaydilar. Muhokama natijasida o`quvchilar kitob mazmunini yaxshiroq o`zlashtirib oladilar, ularda mustaqil o`qishga qiziqish mustahkamlanadi.

Ekskursiya. Ma`lumki boshlang`ich sinflarda tabiatdan anchagina keng ma`lumotlar beridi. O`simliklarning insonlar hayotiga va tabiatdagi roli, o`simliklar dunyosining hilma-xilligi ulardan foydalanish va muhofaza qilish to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlar beriladi. Sinfda olingan bilimlarni mustaxkamlashda va umuman tabiatga nisbatan o`quvchilarning muxabbatini oshirishda ekskursiyaning roli nixoyatda kattadir. Uqituvchi ekskursiya tashkil qilishdan oldin bolalarga ular ekskursiyaga borishlarini, u yerda jonajon o`lkamizning boylilari; bilan tanishishlarini, O`zbekiston nima bilan mashhur ekanligini bilib olishlarini tushuntiradi.

Ekskursiyalar bolalarda vatanparvarlik, faxrlanish, xis-tuygularini tarbiyalaydi. Ekskursiyada olingan bilimlar keyingi mashgulotlarda mustaxkamlanadi.

8- Mavzu: Tabiatshunoslik fani bo`yicha o`quvchilar bilimlarini

nazorat qilish va baholash.

Reja:

1. **Bilimlarni tekshirish turlari, Ijodiy daftar yuritish va amaliy masalalar yechish.**

2. **Bilim va ko`nikmalarini tekshirish tizimi, umumlashtiruvchi darslarning mazmuni va o`tkazish metodikasi.**

3. **Baholashga qo`yilgan metodik talablar.**

Tayanch so`zlar va iboralar.

Ochiq testlar, yopiq testlar, kartochkalar, yozma ishlar, kitob o`qish, frontal so`rash, individual surash, yozma tekshirish,

O`qituvchining o`qitish jarayonini nazorat qilib borishi, o`quvchilar bilimini tekshirishi va baxolashi o`qitish jarayonining majburiy elementidir. Tekshirish bilimlarni mustaxkamlash va aniqlashga xizmat qiladi, chunki uzoq vaqt tekshirishsiz qolgan bilimlar onson unutiladi. Bilimlarni takrorlash yangilarini o`rganish uchun tayanchdir.

Tabiatshunoslik darslarida o`tilgan matyerialni takrorlash va umumlashtirish yangi mavzuni o`rganish jarayonida va uni o`rganishdan keyin, shuningdek har bir chorak hamda yil ohirida o`tkaziladi. Takrorlashning turli uslublari mavjud. Hammadan avval bu ko`rilgan diafilmlar yoki kinofilmlar, suratlar, kontur haritalar bo`yicha suhbat vaqtida, o`quvchilar tomonidan tajribalar o`tkazilayotganda, masalalar echish va mashqlar bajarilayotganda bilimlarni frontal yoki individual tekshirish.

Takrorlash turlaridan biri o`quvchilar bilimini og`zaki hisobga olishdir, u har bir darsda butun sinfni frontal so`rash, yoki ayrim o`quvchilardan individual so`rash ko`rinishida kuzatiladi. Frontal so`rashning qimmati shundaki, bunda javob berishga ko`proq sondagi o`quvchini jalb qilish va butun sinfni e`tiborini ushlab turish imkoniyatini beradi.

Ta'lim-tarbiya va o'qish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni bilimini teshirib va baholab o'tiradi. Bu bilimlarni mustaxkamlab aniqlashtirishda katta yerdam beradi. agar uzoq vaqt tekshirilmay qolsa bilimlar oson unitiladi, chunonchi takrorlab o'tirish zarur. Tabiatshunoslik darslarida takrorlash yangi matyerialni o'rganish jarayonida va keyin, shuningdek har bir chorak hamda yil oxirida o'tkaziladi. O'quvchilar bilimi frontal yoki individual tekshiriladi. Masalan, kinofilm'lar, suratlar, kontur kartalar bo'yicha suhbat vaqtida, o'quvchilar tomonidan tajribalar o'tkazilayotganda, masalalar echish va malakalar bajarilayotganda tekshiriladi.

O'quvchilar bilimini hisobga olish, har bir darsda sinfdan **frontal so'rash** yoki **individual surash** orqali o'tkaziladi. Frontal so'rashning ahamiyati shundaki, javob berishga ko'proq o'quvchilar jalb qilinadi va sinf e'tiborini ushlab turish imkoniyati bo'ladi.

So'rash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarining aniqligi, konkretligi va o'rganilda yotgan jonsiz tabiat ob'ektlari o'simlik va hayvonlar to'grisidagi tasavvur va tushunchalarini to'gri ekanligini aniqlab borishi kerak. SHunga ko'ra yangi matyerialni faqat ogzaki bayon qilibgina qolmay o'quvchilar javoblarida foydalanishni talab qilish kerak. O'qituvchi esa o'z hikoyalarini texnika vositalaridan foydalanib olib borishi kerak. O'quvchilar e'tiborini faollashtirish uchun savolni butun sinfga keyin esa, konkret o'quvchi javobiga chaqirish foydali. Bu o'quvchilarning - diqqatini to'plashga yordam beradi. SHuningdek javob bergano'quvchining yo'l qo'ygan xatolarini to'trilab borish zarur. SHuni bilan birga o'qituvchi butun sinfni o'z nazorati ostida ushlab turish kerak.

Yozma tekshirish savollarga yozma javob berish va yozma topshiriq bajarish tarzida o'tkaziladi. Masalan. "Dala" mavzusi bo'yicha tekshirish ishi uchun qo'yidagi savollar keltiriladi: 1. Paxta mevasi nima deb ataladi? 2.

G'allaning poyasi nima deb ataladi? 3. Poliz o'simliklarining qaysilarini bilasiz? 4. O'zim qanday ko'paytiriladi?

Yozma ish uchun tezis tipdagi dasturlashtirilgan topshiriqlar, raqamli diktantlar, dasturlashtirilgan kartochkalardan foydalanishi mumkin.

O'qituvchi har bir o'quvchining qanday o'zlashtirayotganini, o'quv materialini qanchalik egallayotganini aniqlaydi shuning bilan bir qatorda o'qitishning sifatini ham baholaydi. Bilimlarni baholash intensivligini oshirish uchun bir necha o'quvchilardan bir vaqtda so'rashni qo'llanish metodi o'rinli. Masalan, bir o'quvchi sinf oldida o'qituvchiga javob beradi, 2-3 o'quvchi doskada rasmlar chizadi, bir necha didaktik dasturlashtirilgan kartochkalar bilan ishlaydi.

O'qituvchining o'qitish jarayonini nazorat qilib borishi, o'quvchilar bilimini tekshirishi va baholashni o'qitish jarayonining majburiy elementidir. Tekshirish bilimlarni mustaxkamlash va aniqlashtirishga xizmat qiladi. Chunki uzoq vaqt tekshirishsiz qolgan bilimlar oson unitiladi. Bilimlarni takrorlash yangilarini o'rganish uchun tayanchdir.

9- Mavzu: Tabiatshunoslikni o'qitish vositalari.

Reja:

- 1. Tabiatshunoslik xonasini jihozlash,**
- 2. O'qitish vositalarining turlari.**

Tayanch so'zlar va iboralar: Mulyaj, surat, , tulum (chuchela), mikraskop, kadaskop, kompyuter, globus, tabiiy xarita, maket.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar "Atrofimizdagi olam" darsligini o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlar faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil

jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy ob'ektlar va ularning mulyaji, surati, rasmi, temasi kiradi. O'qitishda diafilm va kinofilmlar, teleko'rsatuvlar va o'qitishning boshqa texnika vositalari tobora keng qo'llanilmoqda. Tabiiy qurollar-tabiat jismlaridir, ular o'rganilayotgan matyerial to'g'risida ancha haqiqiy matyeriallar va bolalarda bevosita qabul qilish asosida tushunchalari xosil bo'lishiga imkon beradi. Chunki sinfda va tabiatshunoslik kabinetida jonli tabiatni o'rganish uchun xar hil xona o'simliklari, shuningdek o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lgan shoxchalar, barglar, gullar, meva va uruglar bo'lishi mumkin. Tabiatshunoslik darslarida tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek gyerbary va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalaniladi. SHuningdek tabiy ob'ektlardvn hayvonlarni o'rganishda ham foydalanish ma'qul, ko'pgina hayvonlarni bolalarga sinfda (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham ekskursiyalarga afzallik berish kerak bo'ladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini emas balki xarakterli va xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. *Tirik hayvonlar* bo'lmaganda ularning chuchelalari (tulumlari), mulyajlari yoki fotosuratlari va rasmlaridan foydalanish mumkin. *Jonsiz tabiatni* o'rganishda ham tabiy tarqatma matyeriali, masalan, har xil rangdagi granit, slyuda, kvars, dala shipati, loy, qum, kal'sit (bo'r, marmar, ohak, xar xil toshko'mir, temir, mis rudalarining nomunalari, shuningdek metallar hamda qotishmalar)temir, cho'yan, polat, alyuminiy birinj), tuproq namunalari va boshqalar bo'lish mumkin. o'quvchilarga bevosita qabul qilish mumkin bo'lmagan tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlar xosil qilish uchun ko'rsatiluvchi qurollardan foydalaniladi. Tabiatshunoslik bo'yicha devoriy o'lkashunoslik suratlaridan, shuningdek zoologiya bo'yicha tablisalardan foydalanish mumkin. Ular tabiatning o'lkashunoslik ob'ektlari to'grisida tasavvur va tushunchalar shakllantirishga yordam beradi. Sinflarda bosma rasmlari, ularni ifodalovchi matnlari, o'quvchilar uchun savol va

topshiriqlari bo'lgan "Kuzatishlar kundaliklari"dan foydalanish zarur. Tabiatshunoslik matyeriallarini o'zlashtirishda xarita-shemalarni chizish katta o'rin tutadi. Ularni qo'llanish yo'lida (ufq tomonlarini aniqlashda) maktab hovlisidagi narsalarning joylashishining oddiy rasmini chizish birinchi qadam bo'ladi. Kartografik tasvirlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishni tekshirish uchun xarita-shemalardan foydalanish qulay. **Plan, xarita, globus** bilan tanishtirish 4-sinfdan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchilarning plan nimaligi bilan tanishtirish uchun uning asosiy elementlari bilan izchil va sistemasi bilan tanishtirish kerak. Tayyorgarlik mashqlarini o'tkazadi. Planni tushunishga tayyorlashning birinchi bosqichi joyida orientirlash. U masofalarni o'lchash chizmada tasvirlash uslublarini o'zlashtirish. Uning uchun o'quvchilar kuni o'rtasidagi soyani kuzatadilar. Kompas bilan ishlashni o'rganadilar. Sinf va ochiq havoda mashqlanib, ular asosiy va oraliq yo'nalishlarni aniqlashga odatlanadi. Yo'nalishlarni ifodalashga mashqlar o'tkazadi. Bolalar shimolga yuzlanib atrofdagi narsalarni qarab chiqadi, keyin qaysi narsalar ulardan shimolda, qaysilari jonubda, g'arbda turganligini aniqlaydi so'ng chizmada tasvirlashga o'tadi. Amaliy mashq vaqtida bolalarni qadamlab o'lshash texnikasini o'rgatadi. O'quvchilarga har xil narsalarni berib rasm, fotosurat va gugurt qutisi, kubik, stakan boshqa narsalarni obchiqib, o'xshashlik farqlarini topishni topshiradi, so'ng gemetrik figuralarni berib tarqatadi, uni o'quvchilar daftar varag'iga ustiga qo'yib atrofni qalam bilan qog'ozga chizadilar. Topshiriq bajarilgandan keyin narsaning yuqoridan ko'rinishini plan deyiladi degan xulosaga olib keladi. Undan keyin stolning plani chizdiriladi. Agar o'quvchilar narsalarning kattaliliga qiynalsalar tasvirlanadigan narsani shartli ravishda kichiraytirish mumkinligini tushuntiradi. (Masalan 10, 20 marta) Tabiatshunoslikni o'qitishda globus ham muhim ahamiyatga ega. Agar plan yer yuzasining katta bo'lmagan uchatkasini yirik masshtabli tasvirlashdan xaritada mayda masshtabli tasvirlashga o'tishga imkon berganbo'lsa, globus butun yerning to'g'ri shakli va yuzasining tasvirini beradi. Globus yer shakli,

kun va tunning almashinishi, yil fasllari, issiqliq mintaqalari to'grisidagi matyerialni tushinish uchun zarur. Globus va xaritalar bilan olib boriladigan qator mashqlar bolalarning yarim sharlar xaritasida sun'iy ravishda ajratilgan Yerning yuzasi aslida ajramas ekanligi haqidagi fikrga o'rganishga yordam beradi. **Ekran vositalariga** diafil'm, diapozitiv va kinofil'mlar kiradi. Ekran vositalarini nomoyish qilish uchun xona qorong'ilatilgan, maxsus jixozlangan bulishi zarur. Bularga sarflangan vaqt darsning mavzusi, maqsadi va tipiga bog'liq. **Model ko'rgazmali** qurol sifatida narsa va qurilimning barcha tafsilotlarini takrorlovchi ularga o'xshash xajimli tasvirdir. Modellarning ahamiyati juda katta chunki ular sathli rasmlarda farq qilib, o'rganilayotgan narsa tug'risida tasavvur beradi. Tabiatshunoslik bo'yicha dastur matyerialini uzlashtirish uchun bo'lgan modellarni ikki guruhga ajratamiz: 1. Yer yuzasi shakllarining: tog', tepalik, daryo vodiylari, daryo va ularning tarmoqlari, o'pirilish, jarlarning jo'g'rafiy modellari kiradi. 2. Har xil qurilish va inshoatlar: shaxta, domna pechi, suv va shamol xarakatlantiruvchilari kabilarning modeli kiradi.

10- Mavzu: Tabiatshunoslikni o'qitish vositalari.

REJA:

1. Tabiatshunoslik darsliklari

2. O'qitishning texnik vositalari.

Tayanch so'zlar va iboralar.

Mulyaj, surat, , tulum (chuchela), mikraskop, kadaskop, kompyuter, globus, tabiiy xarita, maket.

Darslik bu o'quv jarayonida darsda o'zlashtirilgan bilimlarni mustaxkamlovchi va kengaytiruvchi muhim vosita. Tabiatshunoslik darslari

ta'lim beruvchilik, rivojlantiruvchilik hamda tarbiyalovchilik ahamiyatga ega. Darslik tabiatning mavsumiy xususiyatlarini xisobga olgan xolda tuziladi. Chunki bizda kalendar bo'yicha 1 sentyabrdan kuz boshlanadi, lekin O'zbekistonda hali ham yozdagidek issiq bo'ladi. Shuning uchun birinchi dars yozgi kuzatishlarga yakun yasashga bag'ishlanadi, buning uchun darsliklarda yozdagi tabiatda olib borilgan kuzatishlarni aks ettiruvchi mavzular qarab chiqiladi.

Tabiatshunoslikni o'rganishning yozgi kuzatishlarini sistemalashtirishdan boshlaydi. Masalan, yarim kunda quyosh balandligi yoz oxirida kun va tunning uzunligi, kechquruning iliqligi, mevalarning mo'lligi, ularning etilish muddatlari; go'za maysalarining paydo bo'lishi, ularning gullashi va meva hosil qilishi; yozda hayvonlar xayoti; yoz davrida odamlarning mehnat faoliyati va xokazalar.

4-sinfda harita va globus to'grisida dastlabgi tassavurlarni oladilar, shuning uchun sinfda O'zbekiston Respublikasining tabiiy xaritasi, yarim sharlar tabiiy xaritasi, tabiiy zonalar xarita, foydali qazilmalar xaritasi bo'lishi kerak. SHuningdek atrof joyining shartli belgilariga ega bo'lgan yirik masshtabli plani o'quvchilar yashayotgan hamda o'qiyotgan shahar yoki aholi punktining planidan ham foydalaniladi, *Proyeksion apparatlarga* shishadagi diapozitivlarni namoyish qiladigan alaskopp va filmaskoplar kiradi. Sanoatimizda tayyorlangan maktab proeksion apparatlari maxsus qo'llanma bilan ta'minlangan. Darsda diapozitivlarni nomoyish qilishdan oldin o'qituvchi qo'llanma mazmuni bilan tanishishi va mavjud apparadlar bilan ishlash uslublarini amaliy ravshda egallagan bo'lishi mumkin.

Tabiatshunoslik darslarida *kodoskop* ham qo'llaniladi, unda fabrika usulida bajarilgan tiniq parada chizilgan maxsus tarnsporantlar va shuningdek yasama qurollar (rangli shemalar) rasmlar, kesmalar yonidan

ko`rinishlar va boshqa qo`rollar qo`llaniladi. Transporant shu bilan qo`layki, u har xil jarayonlarni) masalan qo`lni o`t bosishi manbalar, ya`ni buloqlar hosil bo`lishi, tabiatda suvni doira bo`ylab aylanishi va bosh) dinamikada)xarakatda) ko`rsatish imkonini beradi. Bunday samaraga transporant kadrlarni izchimlik bilan qo`yib borish bilan yerishiladi. Kodoskop bevosita apparat stolchasida odatdagi flomastyer, sharikli ruchka yoki qalam bilan tiniq pardada chizilgan ar qapday rasm (shema) ko`rinishini ekranda ko`rsatishgaa imkon beradi. Ekran qurollari (diafil`mlar, diapozitivlar, slaydlar) mustaqil rolni yoki asosiy to`ldiruvchisi sifatida yordamchi rolni bajarishi mumkin. Ekran qurollari devori suratlar kabi zaruriyatga qarab namoyish qilinadi. Bir darsning o`zida 5-6 kadrdan foydalanish tavsiya qilinadi. Ayrim hollarda 10 gacha kadrlardan foydalansa bo`ladi. Ular xujatli ko`rinishli yoki mul`tifikasiyalashgan bo`lishi mumkin. Ulardan maqsadga yo`nalgan xolda foydalanish zarur. Ekran qurollarining kadrlarini e`tibor bilan ko`rish ma`qul, lekin uzoq vaqt emas, chunki bunga plyonka va oyna qizib ketadi va shakli o`zgarishi yoki yorilib ketishi mumkin. Bundan tashqari yoruglik surati kuchli ta`sirlovchi sifatida ko`rish organini tezda charchatadi va shuning uchun ham tezda o`quvchilarning ma`dasiga tegadi. Murakkab kadrlardan foydalanishning eng ko`p vaqti 1-2 daqiqa. Tajiribalar va laboratoriya mashgulotlari uchun (darslarda va yosh tabiatshunoslar to`garagida) maxsus jihozlar: o`lchov asboblari, lupa, laboratoriya uskunalari, idishlar, matyeriallar, yordamchi asboblar kerak. Ulchov asboblariga har xil suyuqliklarning muayyan hajmini o`lchash uchun manzurkalar, tyermometrlar va shu kabilar kiradi. Jihozlarni ko`rgazmali qurollar magazinlaridan sotib olish mumkin. Ayrim asboblarni o`quvchilarning o`zlari tayyorlashlari mumkin. **Laboratoriya** uskunalariga laboratoriyaya shtativlari, uchoyoqlar spirt lampalari, asbeslangan to`r, probirka qo`yadigan shtativlar, qisqichlar, shuningdek

idishlar, shisha voronkalar, kolbalar oq shisha pufakchalari, idishlar to`plami choy stakanlari, lampochkalar va boshqalar kiradi.

Ekran vositalariga diafil`m, diapozitiv va kinofil`mlar kiradi. Ekran vositalarini nomoyish qilish uchun xona qorong`ilatilgan, maxsus jixozlangan bulishi zarur. Bularga sarflangan vaqt darsning mavzusi, maqsadi va tipiga bog`liq.

Model ko`rgazmali qurol sifatida narsa va qurilimning barcha tafsilotlarini takrorlovchi ularga o`xshash xajimli tasvirdir. Modellarning ahamiyati juda katta chunki ular sathli rasmlarda farq qilib, o`rganilayotgan narsa tug`risida tasavvur beradi. Tabiatshunoslik bo`yicha dastur matyerialini uzlashtirish uchun bo`lgan modellarni ikki guruhga ajratamiz: 1. Yer yuzasi shakllarining: tog`, tepalik, daryo vodiylari, daryo va ularning tarmoqlari, o`pirilish, jarlarning jo`g`rafiy modellari kiradi. 2. Har xil qurilish va inshootlar: shaxta, domna pechi, suv va shamol xarakatlantiruvchilari kabilarning modeli kiradi.

Ko`rgazmali vositalar qatoriga yangi matyerialni tushuntirishni sinf taxtasida grafik tarzida tasvirlab ko`rsatish ham kiradi. O`quvchilar tasvirni daftarlariga chizib olishda beixtiyor esda qoldiradi.

11-Mavzu: Jo`g`rafiya maydonchasi, o`quv-tajriba maydonchasida mashg`ulotlarni tashkil qilish.

Reja:

- 1. Tirik tabiat burchagi.**
- 2. Maktab tajriba maydonchasiga qo`yiladigan talablar.**
- 3. Jo`g`rofiya maydonchasining tabiat bilan tanishtirishda ahamiyati.**
- 4. Boshlang`ich maktabda o`lkashunoslik burchagi.**

Tayanch soʻzlar va iboralar. Gnomon tayoqchasi, Tirik tabiat burchagi, gorizont, gorizont chizigʻi, barometr, termometr, fluger.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun **jonli tabiat burchagi** tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va oʻsimliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni oʻrganishda foydalanish mumkin. Burchak shunidek oʻqovchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istagan vatida ish oib borishlari mumkin. Tabiatga oʻtkaziladigan ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanini boʻlishi mumkin. Suv xavzasidagi xayot bilan tanisha oʻtirib, oʻquvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qoʻngʻizlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv oʻsimliklarining barchasi akvarium, shisha bankalar yoki boshqa roqli idishlarga joylashtiriladi. Bog va polizlarda koʻpincha meva, rezavor meva hamda sabzavod oʻsimliklari zararkunandalarning gumbak va qurtlari uchraydi. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan maqul. Bunday imkoniyat boʻlmaganda oʻsimlik va hayvonlarni tabiatshunoslik kabineti yoki sinfda joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug boʻlishi, dyaeraza roʻparasiga har xil podstavkalarga suv hayvonlari hamda oʻsimliklari boʻlgan akvariumlarni qoʻyish qoʻlay boʻladi. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq boʻlishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish maʼqul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni xisobga olish mumkinki, baliqlar toʻrtburchak idishda yaxshi koʻrinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichiklariga (oʻlchamiga) va undagi oʻsimliklarning soniga muvofiq boʻlishi kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislarodning balansi taʼminlansin. Akvariumda yasovchilarga doimiy parvarish zarur, oziqni zoomagazinnan sotib olish mumkin. Baliqlarni ularni shartli refleks xosil qilishi uchun muayyan vaqtda aziqlantirish kerak. Bolalar tyermometr bilan oʻlchab, suv haroratini tekshirib borishga oʻrganishlari lozim. Sudralib

yuruvchilar va suvda ham quruqda yasovchilar uchun xilma-xil ko`rinish va katta kichiklikdagi tyerrariumlar kuriladi. Odatdagi tyerrarium metallardan yoki yogochdan tayyorlangan yashik bo`lib, yon va tepa devorlari shisha va to`rdan iboratdir. SHisha devor tyerrariumda yasovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to`rdan bulyshi ham ventilyasiyasini ta`minlash imkoniyati beradi. Jonli tabiat burchagining aholisi (yangi o`simlik va hayvonlari) uning asosini tashkil qiladi. Unga qarab jixozlar tanglanadi. O`simlik va hayvonlar nobari tabiatshunoslik dasturiga qarab, o`lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olish belgila. Barcha xona o`simliklari ularning nomlari va qachon va qayday olinganligi to`g`risida ma`lumotlar yozilgan etiketkalariga bo`lishlari zarur. O`simliklardan avval shundaylarni tanlash kerakki, ular yordamida nfmlik, issiqlik, yorug`lik, suv iste`mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe) nam iqlimga moslangan o`simliklarni, tropik o`simliklarni (navro`zgul), yorug`lik sevchi (xina) va soyaga chidamli (aspidistra) o`simliklarini namoyish qilish mumkin bo`lsin. Keyin shunday o`simliklar tanglanidiki, ular masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskansiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o`tkaziladi. Maktab o`quv tajriba maydonchasi bevosita maktab yaqinida bo`lishi, yer tekis, yaxshi tuproqli, soya tushmaydigan bo`lishi kerak. Uning atrofini albatta o`rash kerak bo`ladi. Maktab uchsastkasi agrtexnika nuqtai nazardan namunali bo`lsin. Uni biologiya o`qituvchi otalikka oladi. Uchastkani tashkil qilishda o`quvchilar an o`tkazadigan mashGulotlar uchun, maydonchani va mehnat qurollarini saqlash uchun kichiroq xona bo`lishini mo`ljallash kerak. O`quv tajriba maydonchasidagi ishlarni butun sinf bilan dars vaqtida o`tkaziladigan majburiy ishlarga, o`quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda)uy vazifasi yoki yozgi topshiriq tarzida) bajaradigan majburiy ishlarga va yosh tabiatshunoslik to`garagi a`zolarining ishlariga ajratish mumkin. 1-sinfda o`quvchilar kuz davrida daraxt, buta va o`simliklar bilan, ular barglari va gullari shakllari hamda ranglarining xilma-xilligi va chiroyliligi

bilan, qo'l bilan ishlatiladigan asboblar (xaskash, zambil) va ular bilan ishlash uslublari bilan tanishadilar. Bahorda birinchi sinf o'quvchilari bilan uquv tajriba maydonchasida amaliy ishlar o'tkaziladi. Ularni urug'larni ekish va ularni parvarish qilish, sugorish, o'toq qilish, tayanch qoziqlarini qoqish qoidalarini bilib oladilar. Tuproqni ishlash, marza klumbalar olish ishlarini katta yoshdagi maktab o'quvchilari bajaradilar. Birinchi sinf o'quvchilari urug'larni ekishga tayyorlaydilar va yerga ekadilar, o'simliklarni parvarish qiladilar. 2-sinfda o'quvchilar kuzda o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar vaqtida amal qilinishi kerak bo'lgan mehnat haftaligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan, urug'larni yig'ish va saqlash qoidalari bilan tanishadilar, kuzda tuproqqa ishlov berishga tayyorlaydilar, tuqilgan barg va shoxlarini yigib oladilar, o'simlik qoldiqlari va ahlatlarni chiqarib tashlaydilar. Katta yoshdagi o'quvchilar eski tuproqni chopib beradilar. Bahorda 2 - sinf o'quvchilari gul manzarali hamda dukkakli o'simliklarning o'rug'larini ekishga tayyorlaydilar, buning uchun yirik va sog'lom urug'larni tanglab oladilar ularni ivitadilar va undiradilar (urug'larni tuproqqa ekish) o'simliklarni o'stiradilar. Keyin matyerialni xaskash bilan tekislaydilar. Yerga urug'lar ekish bilan ustini bir yo'la ko'madilar, o'simliklarni keyingi parvarishini olib boradilar. 3-sinf o'quvchilari kuzda xaskash va belko'rak bilan ishlashda mehnat xavfsizligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan tanishadilar, marzada o'stirilgan o'simliklarning urug'larini yig'adilar uchastkani o'simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, o'g'it soladilar, tuproqni agdarib chopadilar, ikkinchi sinfdagi o'qish davrida maktab oldi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar yakunini chiqaradilar, maktab ko'rgazmasi uchun eksponatlar tayyorlaydilar. 3-sinf o'quvchilari ildiz meva (rediska, lavlagi, sabzi) va bir yillik gul manzarali o'simliklarning (kosmeya, astra, itogiz, gultojixo'roz) urug'larini ekishga tayyorlaydilar. Ko'chat qalinligini ildiz mevalar ekishga tayyorlaydilar, o'gitlarning ildiz mevalar xosiliga va gul manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tajriba va kuzatishlar olib boradilar. Ildiz meva va gul manzarali o'simliklar urug'larini

yerga ekadilar, tajribalar qo`yadilar va ekinlarni paradilar. sugoradilar, o`toq va yagana qiladilar ko`cha o`tkazadilar. 4-sinf o`quvchilari kuz davrida xosilni yig`adilar va xisobga oladilar, ularni saqlash qoidalari bilan tanishadilar, uro`Glar yigadilar, tuproqqa ishlov beradilar, rezavor, buta va mevali daratlarni qishga tayyorlaydilar. Bundan tashqari o`quvchilar mevali daraxtlarning tanasi hamda asosiy poyasidagi eski postloqlarini olib tashlaydilar, tana atrofiga tuproq tashlaydilar, unga o`git soladilar va manzarali butalar o`tkazadilar. Boshlangich sinf o`qituvchisi o`quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qila borib, iqlim sharoitlarini, maktabning hududida joylanishini hisobga olishi va barcha masalalarni biologiya o`quvchisi bilan kelishib olishi lozim. Uchastka yosh tabiatshunosning qishloq xo`jalik tajribalari va qo`shimcha amaliy ishlari bazadir: chunki u yerda tabiatshunoslik darslarida o`rganiladigan o`simliklar o`stiradi. 1-sinfdan boshlab o`z o`lkalarini, o`z joylarini o`rganadilar, tabiat o`stida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o`tkazadilar. Boshlangich maktabda o`qish vaqtida ularda boy faktik matyerial to`planadi, bu matyerial o`lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o`tishi bilan o`lkashunoslik burchagida boshlangich maktabni ilgargi bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli matyeriallar to`planib boradi, undan tabiatshunoslikni o`qitishda sistemali ravishda foydalaniladi. Ulkashunoslik burchagi tabiatshunoslik kabinetida yoki alohida sinfdan barfo etiladi. Matyerial uch bo`limga ajratiladi: bizning o`lka, ob-havo va tabiat belgilari.

12-Mavzu: Tirik tabiat burchagini jihozlash va ularda mashg`ulotlarni tashkil qilish. (2 soat).

Reja

1. Tirik tabiat burchagi

2. Maktab tajriba maydonchasiga qo`yiladigan talablar.

Tayanch soʻzlar va iboralar. Akvarium, terrarium, , gambuziya, Oʻlkashunoslik burchagi, tabiiy xarita, Ob-havo kalendari, gerbariyalar, kolleksiya, Yashil nazoratchilar.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u erda xayvon va oʻsimliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni oʻrganishda foydalanish mumkin. Burchak shunidek oʻqovchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun baza hisoblanadi. Bu erda ular yilning istagan vatida ish oib borishlari mumkin. Tabiatga oʻtkaziladigan ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanini boʻlishi mumkin. Suv xavzasidagi xayot bilan tanisha oʻtirib, oʻquvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qoʻngʻizlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv oʻsimliklarining barchasi akvarium, shisha bankalar yoki boshqa roqli idishlarga joylashtiriladi.

Bogʻ va polizlarda koʻpincha meva, rezavor meva hamda sabzavod oʻsimliklari zararkunandalarning gumbak va qurtlari uchraydi. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan maqul. Bunday imkoniyat boʻlmaganda oʻsimlik va hayvonlarni tabiatshunoslik kabineti yoki sinfdan joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug boʻlishi, deraza roʻparasiga har xil podstavkalarga suv hayvonlari hamda oʻsimliklari boʻlgan akvariumlarni qoʻyish qoʻlay boʻladi.

Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq boʻlishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish maʼqul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni xisobga olish mumkinki, baliqlar toʻrtburchak idishda yaxshi koʻrinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichiklariga (oʻlchamiga) va undagi oʻsimliklarning soniga muvofiq boʻlishi kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislarodning balansi taʼminlansin. Akvariumda yasovchilarga doimiy parvarish zarur, oziqni zoomagazinnan

sotib olish mumkin. Baliqlarni ularni shartli refleks xosil qilishi uchun muayyan vaqtda aziqlantirish kerak. Bolalar termometr bilan o'lchab, suv haroratini tekshirib borishga o'rganishlari lozim. Sudralib yuruvchilar va suvda ham quruqda yasovchilar uchun xilma-xil ko'rinish va katta kichiklikdagi terrariumlar kuriladi. Odatdagi terrarium metallan yoki yog'ochdan tayyorlangan yashik bo'lib, yon va tepa devorlari shisha va to'rdan iboratdir. Shisha devor terrariumda yasovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to'rdan bulayshi ham ventilyatsiyasini ta'minlash imkoniyati beradi.

Jonli tabiat burchagining aholisi (yangi usimlik va hayvonlari) uning asosini tashkil qiladi. Unga qarab jixozlar tanglanadi. O'simlik va hayvonlar nobari tabiatshunoslik dasturiga qarab, o'lkashunoslik xususiyatlarini hisobga o'tshb belgila. Barcha xona usimliklari ularning nomlari va qachon va qayday olinganligi to'g'risida ma'lumotlar yozilgan etiketkalariga bo'lishlari zarur. O'simliklardan avval shundaylarni tanlash kerakki, ular yordamida nfmlik, issiqlik, yorug'lik, suv iste'mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe) nam iqlimga moslangan o'simliklarni, tropik o'simliklarni (navro'zgul), yorug'lik sevchi (xina) va soyaga chidamli (aspidistra) o'simliklarini namoyish qilish mumkin bo'lsin. Keyin shunday o'simliklar tanglanidiki, ular masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskansiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o'tkaziladi.

O'lkashunoslik burchagi. 1- sinfdan boshlab o'quvchilar o'z o'lkalari, o'z joylarini o'rganadilar, tabiatda kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalarga chiqadilar. Boshlang'ich sinfdan o'qish vaqtida ular boy faktik material to'playdilar, bu material o'lkashunoslik burchagiga joylashtiriladi.

Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlang'ich sinfnin avvalgi bitiruvchilari yiqqan qimmatli materiallar to'planib boradi, undan

tabiatshunoslikni o'qitishda muntazam ravishda foydalaniladi. O'lkashunoslik burchagi tabiatshunoslik xonasida yoki alohida sinfda barpo etiladi. Material uch bo'limga ajratiladi: «Bizning o'lka», «Ob-havo kalendari (taqvimi)» va «Tabiat belgilari».

«Bizning o'lka» stendiga quyidagilar joylashtiriladi:

1. O'z aholi punktining nomi ko'rsatilgan yoki (agar u xaritada bo'lmasa) uning o'rnini taxminan ifodalangan xaritasi.
2. O'z joyining nomi ko'rsatilgan O'zbekiston tabiiy xaritasi.
3. Maktab joylashgan joy ifodalangan o'z aholi punktining plani.
4. O'z joyining yuzasi shakllarining fotosuratlari.
5. O'zo'lkasi sanoat ishlab chiqarishini yorituvchi materiallar. Mahalliy sanoat mahsulotlaridan namunalari.
6. Olka qishloq xo'jaligini aks ettiruvchi materiallar (shu joyda o'stirilayotgan qishloq xo'jaligi o'simliklari har xil turlarining fotosuratlari va gerbariyalari).
7. Yashash joyidagi daryoning quyilish hamda boshlanish qismlari, suv havzalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
8. Joy tuprog'i to'g'risida ma'lumotlar (shu daryoning tuproq tiplari ko'rsatiladi).
9. O'lkaning o'simliklari to'g'risida ma'lumotlar (madaniy va yovvoyi o'simliklar gerbariyalari va fotosuratlari).
10. Hayvonlar to'g'risida ma'lumotlar. (Hayvonlarning fotosuratlari va rasmlari).
11. Tabiatga va ishlab chiqarish korxonalariga o'tkazilgan ekskursiyalarda olib kelingan materiallardan tayyorlangan kolleksiyalar. Kartondan kesilgan, shartli belgilari bo'lgan o'lka xaritasida foydali qazilmalarning joyi ko'rsatiladi.

«Bu qiziq» sarlavhasi ostida qiziqarli savollar, tabiat to'g'risidagi asarlardan parchalar, topish uchun hayvonlar tana a'zolari — tumshug'i, tirnog'i, qanotlari yoki yon ko'rinish(siluet)lari tasvirlangan rasmlar, bolalarning ekskursiyalarda kuzatish asosida chizgan rasmlari joylashtiriladi.

O'lkashunoslik burchagiga o'quvchilar tayyorlagan, shahar, viloyat, tuman tarixi aks ettirilgan albomlar qo'yish lozim, mahalliy sanoat mahsulotlarini ko'rsatish ham mumkin. Bu bo'limda tabiat muhofazasi masalalari (davlat muhofazasiga olingan o'simlik va hayvonlarning fotosuratlarini yoki rasmlari va shu kabilar) aks ettirilishi, viloyat yoki o'lkada joylashgan qo'riqxonalar va zakazniklarning nomlari ko'rsatilishi kerak.

Ob-havo taqvimini stenddan iborat bo'lib, uning markaziga chislo va oy yozilib, unga shu kungi ob-havo ma'lumotlari joylashtiriladi. Pastrog'ida termometr, mehnat darslarida o'quvchilar tayyorlagan fluger joylashadi.

Ob-havoni ta'riflashda kartondan qirg'ilgan shartli belgilardan foydalaniladi. Termometr modelida ko'chadagi termometr bo'yicha havo harorati ko'rsatiladi. Shu yerga keyingi bir necha yillarning ob-havo taqvimini va harorat o'zgarishlari grafigi ham joylashtiriladi. Stendning uchinchi bo'limiga joyning ob - havosi va uning belgilari haqidagi materiallar qo'yiladi. Bo'lim yorqin rasmlar bilan bezatiladi.

O'lkashunoslik burchagiga «Yashil nazoratchilar»ning ish rejasi ham qo'yiladi.

O'lkashunoslik burchagining materiallari tabiatshunoslik darslarida keng qo'llanilishi kerak, chunki ular faqat o'lkada tabiati va xo'jaligi to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtiribgina qolmasdan, balki ilgari o'rganilganlarni mustahkamlashga ham yordam beradi.

O'lkashunoslik materiallarini yig'ish maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlaydi, o'quvchilarning tabiat muhofazasi bo'yicha ishlarda baholi qudrat qatnashishlariga imkon beradi.

Savol va topshiriqlar.

1. Jonli tabiat burchagi qayerda joylashtiriladi?
2. O`quv tajriba maydonchasida qanday tajribalar o`tkaziladi
3. Jo`g`rofiya maydonchasidan foydalanib o`tiladigan dars konspektini tuzing.
4. Boshlang`ich maktabning biror sinfi uchun qishloq xo`jaligi mehnatiga ajratilgan soatlarni, hisobga olib, o`quv tajriba maydonchasidagi ishlar rejasini tuzing.

13- MAVZU: Boshlangich maktablarda tabiatshunoslik fanining mazmuni, o`quv dasturini rejalashtirish tamoyillari.

Reja

1. O`zbekistondagi ta`lim islohatlari, boshlangich sinflarda tabiatshunoslikni o`qitish muammolari.
2. Tabiatshunoslikdan davlat ta`lim standartlari mazmuni, tabiatdan o`quv dasturining tahlili.
3. «Atrofimizdagi olam» predmetining o`rni, 1 va 2 sinfning atrofimizda olam darslari, 3 - 4 sinflarda tabiatshunoslikning mazmuni, “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darsliklarni tahlili

Tayanch so`zlar va iboralar.

Ufq tomonlari, foydali qazilmalar, Ekologiya asoslari, hulq-atvor.

I. A. Karimov o`zining “Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.” asarlarida mustaqillik yo`lida buyuk manaviyatimizni tiklash va yanada rivojlantirishga, milliy ta`lim tizimining takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kadrlar taylash milliy dasturda umumiy o`rta ta`lim (1-9 sinflar) majburiy hisoblanadi. U o`z ichiga boshlang`ich ta`lim (1-4 sinflar) ni oladi va ilmlarning asosiy bilimlarini tizimli ravishla o`zlashtirishni ta`minlaydi.

Maktablarning islohati o`quv ta`limining strukturasi o`zgartirdi. 1-2-sinflarda o`quv rejasiga "Atrof olam bilan tanish-tirish" nomli predmeti kiritilgan, uni o`rganishga haftasiga 1 soat ajratildi. SHu kursning asosiy vazifalari atrofdagi xayotning, tabiatning jism va hodisalari to`g`risidagi bolalar tasavvurlarini to`plash va sistemalashtirish, ularning odobiy-aqloqiy tajribalarini boyitish, to`g`ri xulq-atvor ko`nikmalarini shakllantirish, oila a`zolariga muxabbat va g`amxorlikni, atrofdagi odamlarga e`tibor bilan munosabatda bo`lishi, narsalarga ehiyotlik munosabatini, tabiatga ma`sulyatlan munosabatda bo`lishni o`lkaga, Vatanga muxabbatni tarbiyalashdir. Bu o`quv predmeti ikki yo`nalishda olib boriladi:

1. Bolalarni kishilarning ijtimoiy hayoti va mehnati, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Bolalarni jamiyat xayoti bilan tanishtirish formalari, metodlari va vositalari xilma-xil. Ular: ekskursiyalar, atoqli kishilar bilan uchrashuv, korxonalar, muzey, teatr, klublarga borish; suhbat va kitoblar o`qish, kinofil`m, diafil`m va teleko`rsatuvlarni tomosha qilish, bayramlarga tayyorlanish va boshqalar.

2. Yo`nalish bolalarni tabiat bilan bevosita muloqotda bo`lishda tanishtirish, tabiiy ob`ekt hodisalar to`g`risida tasavvurlar shakllantirish, tabiatga nisbatan xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni tashkil qilish nazarda tutiladi. Tabiat bilan tanishtirish ekskursiyalar, o`quv sayirlari davomida va amaliy ishlar tashkil qilinganda o`tkaziladigan kuzatishlar asosida amalga oshiriladi.

O`quv predmeti mazmuni 1-2-sinflarda "Bizning uyimiy va jonajon tabiat", "Bizning maktab" , Jonajon tabiat, "Bizning shahar" (qishloq) va

"jonajon tabiat" mavzulari ochib beradi. Bu predmet boshlang`ich maktabning boshqa predmetlari bilan chambarchas bog`langan.

Tabiatshunoslik fani 3 sinfda kiritiladi. 3-4- sinflardagi tabiatshunoslikni o`qitish tabiat to`g`risidagi 1-2-sinflardagi olingan tasavvurlarni chuqurlashtirish va umumlashtirishdir.

3 sinfda o`quv predmetining mazmuni "Inson va tabiat", "Tabiat jismlari", "Havo, suv, foydali qazilmalarni asraylik", "O`simlik va hayvonot dunyosini asraylik", "Sog`likni saqlash", "Ekologiya asoslari" bo`limlarni o`z ichiga oladi.

4 sinf predmeti mazmuni "Atrofimizdagi tabiat", "Ufq tomonlari", "Bizning Vatanimiz O`zbekiston xarita va globusda", "Jonajon o`lka O`zbekiston", "Tabiatni turli xilligi", "Foydali qazilmalar", "O`zbekiston tabiatini asraylik", "Ekologiya asoslari" bo`limlarni o`z ichiga oladi.

Tabiatshunoslik bo`yicha dastur kichik yoshdagi maktab o`quvchilariga faqat jonajon tabiat go`zalligi va boyliginingina emas, balki qardosh Respublikalari xalqlari bilan hamkorlikda o`z Vatani ahamiyatini ko`rsatishga imkon beradi. O`z Vatanining tabiati va odamlari mehnati to`g`risidagi bilimlarning keng doirasi o`qituvchiga umumiy ta`lim isloh qilishning asosiy yo`nalishlari qo`ygan eng muhim ta`lit-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Boshlang`ich maktabning o`quv rejasida tabiatshunoslik qanday o`rinni egallaydi?
2. 1-2-sinf uquvchilari atrof olamni bilib olish bilan bog`lik xolda tabiat to`g`risida qanday xajimdagi bilimlarga ega bo`ladilar?
3. 3-4- sinflarda tabiatshunoslikni o`qitishning maqsadi qanaqa?

4. Tabiatshunoslikni o`qitishda o`lkashunoslik qoidasining maqsadi qanday?

14-Mavzu: Boshlang'ich maktablarda tabiatshunoslik fanining mazmuni, o`quv dasturini rejalashtirish tamoyillari. (2 soat).

Reja

1. Tabiatshunoslik xonasini jihozlash.

2.O`qitish vositalarining turlari.

Tayanch so`zlar va iboralar.

o`quv sayirlari, muzey, teatr, foydali qazilmalar, ekologiya asoslari.

Kadrlar taylash milliy dasturda umumiy o`rta ta`lim (1-9 sinflar) majburiy hisoblanadi. U o`z ichiga boshlang'ich ta`lim (1-4 sinflar) ni oladi va ilmlarning asosiy bilimlarini tizimli ravishla o`zlashtirishni ta`minlaydi.

Maktablarning islohati o`quv ta`limining strukturasi o`zgartirdi. 1-2-sinflarda o`quv rejasiga "Atrof olam bilan tanish-tirish" nomli predmeti kiritilgan, uni o`rganishga haftasiga 1 soat ajratildi. SHu kursning asosiy vazifalari atrofdagi xayotning, tabiatning jism va hodisalari to`g`risidagi bolalar tasavvurlarini to`plash va sistemalashtirish, ularning odobiy-aqloqiy tajribalarini boyitish, to`g`ri xulq-atvor ko`nikmalarini shakllantirish, oila a`zolariga muxabbat va g`amxorlikni, atrofdagi odamlarga e`tibor bilan munosabatda bo`lishi, narsalarga ehiyotlik munosabatini, tabiatga ma`sulyatlan munosabatda bo`lishni o`lkaga, Vatanga muxabbatni tarbiyalashdir.

Bu o`quv predmeti ikki yo`nalishda olib boriladi:

1. Bolalarni kishilarning ijtimoiy hayoti va mehnati, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Bolalarni jamiyat xayoti bilan

tanishtirish formalari, metodlari va vositalari xilma-xil. Ular: ekskursiyalar, atoqli kishilar bilan uchrashuv, korxonalar, muzey, teatr, klublarga borish; suhbat va kitoblarni o'qish, kinofil'm, diafil'm va teleko'rsatuvlarni tomosha qilish, bayramlarga tayyorlanish va boshqalar.

2. Yo'nalish bolalarni tabiat bilan bevosita muloqotda bo'lishda tanishtirish, tabiiy ob'ekt hodisalar to'g'risida tasavvurlar shakllantirish, tabiatga nisbatan xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni tashkil qilish nazarda tutiladi. Tabiat bilan tanishtirish ekskursiyalar, o'quv sayirlari davomida va amaliy ishlar tashkil qilinganda o'tkaziladigan kuzatishlar asosida amalga oshiriladi.

O'quv predmeti mazmuni 1-2-sinflarda "Bizning uyimiy va jonajon tabiat", "Bizning maktab" , Jonajon tabiat, "Bizning shahar" (qishloq) va "jonajon tabiat" mavzulari ochib beradi. Bu predmet boshlang'ich maktabning boshqa predmetlari bilan chambarchas bog'langan.

Tabiatshunoslik fani 3 sinfda kiritiladi. 3-4- sinflardagi tabiatshunoslikni o'qitish tabiat to'g'risidagi 1-2-sinflardagi olingan tasavvurlarni chuqurlashtirish va umumlashtirishdir.

3 sinfda o'quv predmetining mazmuni "Inson va tabiat", "Tabiat jismlari", "Havo, suv, foydali qazilmalarni asraylik", "O'simlik va xayvonot dunyosini asraylik", "Sog'likni saqlash", "Ekologiya asoslari" bo'limlarni o'z ichiga oladi.

4 sinf predmeti mazmuni "Atrofimizdagi tabiat", "Ufq tomonlari", "Bizning Vatanimiz O'zbekiston xarita va globusda", "Jonajon o'lka O'zbekiston", "Tabiatni turli xilligi", "Foydali qazilmalar", "O'zbekiston tabiatini asraylik", "Ekologiya asoslari" bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliginingina emas, balki qardosh

Respublikalari xalqlari bilan hamkorlikda o'z Vatanini ahamiyatini ko'rsatishga imkon beradi.

O'z Vatanining tabiati va odamlari mehnati to'g'risidagi bilimlarning keng doirasi o'qituvchiga umumiy ta'lim isloh qilishning asosiy yo'nalishlari qo'ygan eng muhim ta'lit-tarbiya vazifalarini amalga oshirishiga imkon beradi.

Savol va topshiriqlar:

5. Boshlang'ich maktabning o'quv rejasida tabiatshunoslik qanday o'rinni egallaydi?

6. 1-2-sinf uquvchilari atrof olamni bilib olish bilan bog'lik xolda tabiat to'g'risida qanday xajimdagi bilimlarga ega bo'ladilar?

7. 3-4- siniflarda tabiatshunoslikni o'qitishning maqsadi qanaqa?

8. Tabiatshunoslikni o'qitishda o'lkashunoslik qoidasining maqsadi qanday?

15- Mavzu: Kam mukamallashgan maktablarda tabiatshunoslikni o'qitishning xususiyatlari.

Reja:

- 1. Oz komplektlangan maktablarda o'qitishning xususiyatlari.**
- 2. Oz komplektlangan maktablarda mustaqil mashgulotlarning o'rni.**
- 3. Darslarni integrasiyalash – oz komplektlangan maktablarning asosiy tamoyili, Kuzatishlarni yuritishning xususiyatlari.**

Tayanch soʻzlar va iboralar.

Oz komplektlangan, kam mukammalashgan maktabda ekskursiya, Kuzatishlar kundaligi bilan ishlash.

Oz komplektlangan maktablarda oʻqituvchi ikki yoki uchta sinf bilan mashgʻulot oʻtkazadi, bunda dars strukturasi oʻzgaradi. Oz komplektlangan maktablardagi darslarning xususiyatlari shundan iboratki ularda ikki-uch sinf bilan bir vaqtda mashgʻulot oʻtkazishda oʻqituvchi oʻquvchilarga odatdagi maktabdagiga qaraganda kamroq eʼtibor ajratadi, darsning koʻp qismi esa oʻquvchilarning mustaqil ishlariga ajratiladi. Bunda oz komplektlangan maktablarda odatdagi maktablarigidek oʻsha xajmda va oʻsha saviyada bilimlar berilishi kerak. Shunga koʻra xar bir darsga tayyorlana turib, oʻqituvchi matyerialni shunday loyixalashtirsinki, bunda u har bir sinfga yangi bir matyerialni tushuntirib, mustaqil ish uchun topshiriq berib, uning bajarilishini tekshirib va baholab ulgursin.

Ikkita va uchta sinfda tabiatshunoslik darslarini birlashtirish murakkab emas. Tabiatga ekskursiya oʻtkazish ancha qiyinchilik tugʻdiradi, bu xol oz komplektlangan maktablar uchun xosdir. Dasturda moʻljallangan ayrim ekskursiyalarni birlashtirib boʻlmaydi. Bunday xollarda sinflarning biri bilan mashgʻulotlardan keyin ekskursiya oʻtkazish uchun jadvalga oʻzgarishlar kiritiladi.

Ekskursiyaga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish uchun oʻquvchilarni kuzatishlar oʻtkazishga puxta tayyorlash; ularni birlashtirilgan sinflarda ularning xar kaysisi uchun tuzilgan topshirklar boʻyicha oʻtkazish; ekskursiya yakunini uni oʻtkazish joyida chiqarishi kerak. Ekskursiya vaqtida olingan kuzatish natijalari birlashtirilgan sinflarning har birida dastur matyerialini oʻrganish bilan bogʻliq holda alohida qarab chiqiladi.

Odatdagi darslar kabi ekskursiya ham o`qituvchi bilan o`tkaziladigan mashg`ulotni va o`quvchilarni mustaqil ishlarini uyg`unlashtirishga imkon beradi.

Mustaqil ish oz komplektlangan maktablar uchun xosdir, uning muxim bosqichidir.

Mustaqil ishlarining mazmuni quyidagicha bo`lishi mumkin:

- Darslik bo`yicha o`tilgan mavzuni mustaqil takrorlash;
- Mustaxkamlash uchun mashqlar;
- Kuzatishlar kundaligi bilan ishlash;
- Kuzatishlar bo`yicha topshiriqlar;
- “Atrofimizdagi olam” darsligi bilan ishlash.

Mustaqil ishlarini turlarini o`qituvchi doskada yozib beradi. Bu ish turi 8-15 daqiqagacha davom etishi mumkin.

Oz komplektlangan maktablarda odatdagi maktablar kabi turli metod va metodik usullardan foydalanish mumkin, ko`rgazmali vositalar, texnik vositalardan unumli foydalanish mumkin.

AMALIY VA SEMINAR MASHG`ULOTLARI MAVZULARI HAMDA METODIK ISHLANMALARI

“TABIATSHUNOSLIK VA UNI O”QITISH METODIKASI” FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARI MAZMUNI

“Amaliy mashg`ulot” atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma`noda izohlanadi. “Amaliy mashg`ulot” termini keng ma`noda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg`ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg`ulotlarning lekstiyadan farqlanadigan

asosiy me'yorlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlarida o'ziga xos xarakter bilan namoyon bo'lishdir. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar Ma'ruza da ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini sinash uchun ham xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi vazifalarni echishga qaratilgan bo'ladi:

- ✓ *ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;*
- ✓ *fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;*
- ✓ *talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;*
- ✓ *nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotda tan olinishi.*

Talabalarning ma'ruzalari bo'yicha izohlar quyidagicha bo'lishi kerak:

- ✓ *mustaqil fikrlashga yo'naltirib turish;*
- ✓ *tavsiya etilayotgan masalaning mohiyati va shaklini aniqlash;*
- ✓ *talabalar bahsidagi nuqtai nazarlarni darrov farqlab olish;*
- ✓ *masalaning nostandart hal qilinishini rag'batlantirish.*

AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI.

AMALIY MASHG'ULOTLARNING TEXNOLOGIK XARITASI

mashg'ulot mavzusi	Tabiatshunoslik darslari, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar hamda ekskursiyalarda o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini
---------------------------	--

		<p>singdirish yo`llari.</p> <p>Tabiatshunoslik darslarida o`quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish.</p>
